**V. I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

FAYZIYEV YUSUF ERGASHEVICH

ELLIPTIK QISMI YUQORI TARTIBLI BO‘LGAN KASR TARTIBLI XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika
(fizika – matematika fanlari)**

**FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

ТОШКЕНТ – 2022

УДК: 517.95

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of doctoral dissertation

Оглавление автореферата докторской диссертации

**V. I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

FAYZIYEV YUSUF ERGASHEVICH

ELLIPTIK QISMI YUQORI TARTIBLI BO‘LGAN KASR TARTIBLI XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika
(fizika – matematika fanlari)**

**FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

ТОШКЕНТ – 2022

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya kommissiyasida B2022.3.DSc/FM198 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va «Ziyonet» Axborot ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika - matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Turmetov Botirxon Xudoybergenovich** fizika - matematika fanlari doktori, professor
	Taxirov Jozil Ostanovich fizika - matematika fanlari doktori, professor
	Karimov Erkinjon To‘lqinovich fizika - matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Kosmofizik tadqiqotlar va radioto‘lqinlar tarqalishi instituti (Rossiya)**

Dissertatsiya himoyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti huzuridagi Dsc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2022 yil « 29 » noyabr soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh. Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz.)

Dissertatsiya bilan V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (148-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh. Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil « 11 » noyabr kuni tarqatildi.
(2022 yil « 11 » noyabrdagi 2- raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi f.-m.f.d., professor

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A. Азамов
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi f.-m.f.d., akademik

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda ko‘pgina hayotiy jarayonlarning matematik modelini tuzib, uni matematik usullar bilan yechish matematiklar ichida keng tarqaldi. Bu jarayonlar meditsina va texnikalar rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Kasr tartibli integral va hosilalarning fizika, biologiya, meditsina va texnika sohalariga tadbiqi juda ko‘p bo‘lib, u bu sohalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli so‘nggi yillarda matematiklar orasida kasr tartibli hosila qatnashgan differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Kasr tartibli tenglamalar bir vaqtda diffuziya va to‘lqin tarqalish jarayonlarini ifodalaydi. Bunday jarayonlar tabiatda juda ko‘p uchraydi. Shuning uchun ham kasr tartibli tenglamalarni o‘rganish juda muhim ahamiyatga egadir. Bunga misol sifatida virus tarqalish jarayonlarini olish mumkin. 2020 yil Differensial tenglamalar va uning tadbiqlari laboratoriyasi va New Haven universiteti (USA) professorlari tomonidan virus tarqalish tezligini aniqlash, tashqi va ichki ta‘sir manbasini va chegaraviy ta‘sir kuchini aniqlash modellari ishlab chiqildi. Shu bilan birga olingan natijalarni Jon Xopkins universiteti bilan birgalikda COVID-19 tarqalish jarayonlarini tahlil qilishga tadbiq qilishdi.

Xususiy hosilali kasr tartibli tenglamalarni yechishni o‘rganish bilan bir qatorda tenglamaning koeffitsiyentlarini, uning o‘ng tomonini, chegaraviy funksiyani va kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlashga oid teskari masalalarni yechishni o‘rganish juda muhim ahamiyatga ega. Teskari masalalarni o‘rganish bizga kasr tartibli tenglama bilan berilgan jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish va boshqarish imkoniyatlarini beradi. Masalan, issiqlik tarqalish jarayonlarini olsak, chegaraviy funksiyani bilishimiz bizga issiqlik tarqalishini chegaradan boshqarish imkoniyatini beradi. Bunga o‘xshash ko‘plab misollar keltirish mumkin. Biz agar vaqt bo‘yicha kasr tartibli tenglamani qarasak, agar kasr tartibli hosilaning tartibi 1 va 2 oralig‘ida bo‘lsa, bir vaqtda diffuziya va to‘lqin tarqalish jarayonlarini aks ettiradi, agar 0 va 1 oralig‘ida bo‘lsa, sekin sodir bo‘luvchi diffuziya jarayonlarini ifodalaydi. Masalan, tabiatda juda ko‘plab uchraydigan virus tarqalish jarayonlarini olish mumkin. Shuning uchun ham kasr tartibli tenglamalarni o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan differensial tenglamalar va matematik fizikaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Matematik fanlarning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha, ayniqsa, «algebra va funksional analiz, differentsial tenglamalar va matematik fizika, dinamik sistemalar nazariyasi» bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifasi va yo‘nalishi etib belgilangan[1]. Qaror ijrosini taъminlashda matematik fizikaning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘zR Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

№ PQ-3682 “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi va 2019 yil 9 iyuldagi № PQ-4387 “Matematika ta‘limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi matematika institute faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasida fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi IV. “Matematika, mexanika va informatika”.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Kasr tartibli hosilali differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar bilan dunyoning deyarli barcha universitetlarida, ilmiy tekshirish institutlarida va ilmiy markazlarida izlanishlar olib borilmoqda. Bunga misol sifatida ba’zilarini sanab o‘tamiz. Yuqorida aytganimizdek, Jon Xopkins universiteti (AQSh), Tokyo universiteti (Yaponiya), Berlin amaliy ilmlar texnika universiteti (Germaniya), New Haven universiteti (AQSh), Berlin universiteti (Germaniya), Belorussiya davlat universiteti (Belorussiya), Xokkaydo universiteti (Yaponiya), La Rochelle universitetida (Fransiya), Amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti (Rossiya), Yaqin Sharq universiteti (Turkiya), Xalqaro qozoq-turk universiteti (Qozog‘iston) va boshqalar.

Kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masalalar Tokyo universiteti professori M. Yamamoto (Yaponiya) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan usul teskari masalaning yechimi yagonaligini ta‘minlab berdi xolos. Amerika qo‘shma shtatlari New Haven universiteti professori S. Umarov va O‘zbekiston Respublikasi FA qoshidagi Matematika instituti professori R. Ashurovlar tomonidan tenglama mos spectral masalaning birinchi xos soni nolga teng, birinchi xos funksiyasi o‘zgarmas son bo‘lsa, kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masalaning yechimini bir qiymatli aniqlashning yangi shartlari olingan.

Kasr tartibli differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun turli chegaraviy masalalar ko‘pgina olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Diffuziya tenglamalari uchun boshlang‘ich vaqt va tayinlangan vaqtdagi qiymatlarini bog‘lovchi nolokal shart bilan A. Ashyaraliyev (Turkiya) va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Elliptik tenglamalar uchun chegaraviy shart kasr tartibli hosilalar bilan berilgan masalalar B. Turmetov (Qozog‘iston) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarni va unga bog‘liq teskari masalalarni yechish bilan juda ko‘plab matematiklar shug‘ullanishmoqda. Bu yo‘nalishda olingan natijalarga misol qilib Sh.O.Alimov, R.R.Ashurov, S.R.Umarov, M.Yamomota, Z.Li, A.Ashyaraliyev, B.Turmetov, Y.Zhang, H.T.Nguyn, A.V.Pskhu, A.S.Malik, E.Karimov va hokazolarning ishlarini aytish mumkin. 2019 yil Z. Li va boshqalar tomonidan chop etilgan maqolada “Ochiq muammolar” bo‘limida quyidagicha ta’kidlangan edi: “Kasr tartiblarini tiklashning teskari muammolari bo‘yicha tadqiqotlar qoniqarli emas, chunki barcha maqolalar muammoni t vaqtning qandaydir oraliqqa tegishli bo‘lgan holi uchun o‘rganilgan. Teskari masalani kuzatish ma‘lumotlari sifatida belgilangan tayin vaqtda yechimning qiymati bo‘yicha o‘rganish qiziqarli bo‘lar edi”. Shu sababli o‘rganilgan barcha ishlarda, J.Jannoning ishidan tashqari, faqat yechimning yagonaligi ko‘rsatilgan. J.Jannoning ishida esa, yechimning mavjudligi ham ko‘rsatilgan, lekin u qo‘shimcha shart sifatida boshqa shartdan foydalangan. R.R.Ashurov va S.R.Umarovlar agar birinchi xos son nolga teng bo‘lsa, unga mos xos element o‘zgarmas son bo‘lsa, yechimning mavjud va yagonaligini ta‘minlash uchun yangi shart ishlab chiqishdi. Ushbu dissertatsiya ishida ushbu shartdan foydalanib turli hollar uchun kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlash masalalari o‘rganildi, shu bilan birga agar birinchi xos soni nolga teng bo‘lmasa ham unga mos xos funksiyaga proyeksiyasi biror tayinlangan vaqtda qandaydir songa teng bo‘lish shartidan foydalanish mumkin ekanligi ko‘rsatilgan.

Ushbu dissertatsiya ishida elliptik qismi o‘z-o‘ziga qo‘shma, musbat, chegaralanmagan, ixtiyoriy A operatordan iborat kasr tartibli subdiffuziya $d^{\rho}u(t)+Au(t)=f(t)$ ko‘rinishdagi kasr tartibli tenglamalarning vaqt bo‘yicha $u(\xi)=\alpha u(0)+\varphi$ (α o‘zgarmas son, ξ fiksirlangan nuqta va $0<\xi<T$) nolokal chegaraviy shartni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasini o‘rganamiz, bu yerda tenglamaning chap tomonidagi d^{ρ} operator orqali Kaputo ma’nosidagi yoki Riman-Liuvill ma’nosidagi kasr tartibli hosila ifodalangan. Eslatib o‘tamiz, kasr tartibli tenglamalar uchun bunday $u(\xi)=\alpha u(0)+\varphi$ nolokal shart ilk bor ushbu ishda o‘rganilgan va qaralayotgan masalaning yechimi mavjud va yagonaligi shartlari keltirib chiqarilgan, qo‘shimcha ravishda α parametrning qaralayotgan masalalarning yechimining mavjudligi va yagonaligiga ta‘siri ham o‘rganiladi. Agar $\alpha=0$ (va $\xi=T$) bo‘lsa, bu muammoga *orqaga qaytish masalasi deb ataladi*. Kaputo ma’nosida kasr tartibli hosila qatnashgan tenglamalar uchun orqaga qaytish masalasi, masalan, Y. Liu, M. Yamamoto, K. Sakamoto, G. Floridia, Z. Li, ishlarida batafsil o‘rganilgan. Riman-Luivill ma’nosida kasr tartibli hosilali tenglamalar uchun orqaga qaytish masalasi, Sh. Alimov, R. Ashurov ishida o‘rganilgan. Klassik tenglamalar uchun orqaga qaytish masalalari bilan S. Kabanikhinning kitobida tanishish mumkin. Shuning uchun, biz faqat nolokal shartda α nolga teng bo‘lgan holni o‘rganib chiqamiz. Diffuziya tenglamalari uchun $\alpha=1$ bo‘lgan holda A.O. Ashyralyev va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Bundan tashqari koersitiv (coercive, коэрцитив) tipidagi tengsizliklar olingan. Tenglamaning o‘ng tomonini topish bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Bizga ma’lumbo‘lishicha, φ funksiyani topish bo‘yicha teskari masala faqat T. Yuldashev, B. Kadirkulov maqolasida yoritilgan. Mualliflar bu muammoni elliptik qismi o‘zgarmas koeffitsiyentli bir o‘zgaruvchili differensial ifodadan iborat Hilfer ma’nosida kasr tartibli tenglamalar uchun o‘rganib chiqganlar. Elliptik qismi ko‘p o‘zgaruvchili yuqori tartibli bo‘lgan butun va kasr hosilali tenglamalar uchun Koshi masalasi ilk bor R.R. Ashurov va A.T. Muhiddinovalarning ishida o‘rganilgan. Nolokal - chegaraviy shart bilan berilgan Riman - Liuvill ma’nosida

kasr tartibli subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalar esa ilk bor ushbu ishda o‘rganilgan. Elliptik tenglamalar uchun chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan masalalar S. Umarov, B. Turmetov va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Ushbu ishlarda kasr tartibli hosilaning tartibi 0 va ½ oralig‘ida bo‘lsa, chegaraviy funksiyadan hech qanday qo‘shimcha shart talab qilinmasligi va ½ va 1 oralig‘ida bo‘lsa, qo‘shimcha shartlar talab qilinishi ko‘rsatilgan. R. Gorenflo, Yu. Luchko, S. Umarovlarning ishida elliptik psevdodifferensial operatorli tenglamalar uchun chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan hol uchun yechim mavjud bo‘lishligi uchun chegaraviy funksiyaga qo‘shimcha shartlar olingan. Barenblatt-Jeltov-Kochina tenglamasi bir jinsli suyuqliklarni filtrlashning asosiy tenglamalari hisoblanadi. Bu haqida ilk bora G. I. Barenblatt, Yu. P. Jeltov va I. N. Kochina ishida e‘lon qilingan. Keyinchalik boshqa ishlarida ham o‘rganilgan. Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi kasr tartibli tenglamalar ushbu ishda birinchi marta o‘rganilgan.

Optimal boshqaruv masalalari yo‘nalishida ko‘pgina matematiklar izlanishlar olib borishgan. Bunga misol sifatida N.Yu. Satimov, Sh.O. Alimov, V.A. Il’in, A. A‘zamov, E.I. Moiseev, A.G. Butkovskiy, F.R. Vasilev, J. Lions, R. Varga, A.I. Yegorov, F.Y. Chernousko, S.A. Avdonin, S.V. Ivanov, H.G. Guseynova, V.V.Tixomirov, K.A. Lurelar, M. To‘xtasinov, G‘. Ibragimov, N. Mamadaliyevning ishlarini aytish mumkin. Ilk bor xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan tasvirlangan jarayonlarning boshqaruv masalalari J.L. Lions ishida batafsil bayon qilib berilgan. So‘nggi yillarda turli xil differensial tenglamalar bilan tasvirlangan jarayonlarni boshqarish masalalarini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. V. A. Il'in va E. I. Moiseev ishlarida to‘lqin tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar uchun chegaradan boshqarish masalalari o‘rganilgan. Parabolik tipdagi tenglamalar bilan tavsiflangan jarayonlarni, xususan, issiqlik uzatish jarayonini boshqarish masalasi bilan bog‘liq muammolar V. Barbu, A. Rascanu va H.O. Fattorini ishlarida qayd etilgan. Bir jinsli issiqlik uzatish tenglamalari bilan ifodalangan jarayonlarni boshqarish masalasi akademik Sh.O. Alimov ishlarida uchratish mumkin. Kasr tartibli tenglamalar uchun manba funksiyasi yordamida boshqarish masalalari ilk bor ushbu ishda o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi F-FA-2021-424 Matematika institutining “Butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimi” rejalashtirilgan tadqiqot mavzusiga muvofiq amalga oshirildi. V.I. Romanovskiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va M. Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining “Differensial tenglamalar va matematik fizika” kafedrasida bajarildi.

Tadqiqot maqsadi ixtiyoriy elliptik operatorli xususiy hosilali va kasr tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimi mavjud va yagonaligini ko‘rsatishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Yuqori kasr tartibli tenglamaning yechimini qurish;

Kasr tartibli subdiffuziya tenglamalari uchun vaqt bo‘yicha nolokal shartli chegaraviy masalalarni yechish;

Kasr tartibli subdiffuziya tenglamalari uchun nolokal-chegaraviy masalalarni yechish;

Kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarda hosilaning tartibi va tenglamaning o‘ng tomonini topish bo‘yicha to‘g‘ri va teskari masalalarni yechish;

Chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan giperbolik va parabolik tenglamalarni yechish;

Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi kasr tartibli tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni yechish;

Chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni yechish;

Kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun birinchi chegaraviy masalaning yechimini qurish;

Kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshqaruv masalalarini yechish;

Tadqiqotning ob’ekti. Kaputo, Riman-Liuvill, Gryunvold-Letnikov, Wayl kasr tartibli hosilalari, Mittag-Leffler funksiyalari, vaqt bo‘yicha kasr tartibli tenglamalar.

Tadqiqotning predmeti. Dissertatsiyaning tadqiqot predmeti xususiy hosilalali va kasr tartibli ixtiyoriy elliptik operatorli differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik analiz, funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika usullaridan foydalanilgan. Matematik fizika usullaridan o‘zgaruvchilarni ajratish usuli qo‘llaniladi hamda Hilbert fazosida xos funksiyalar sistemasini to‘la ekanligi tadbiq qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kasr tartibli subdiffuziya tenglamalarining nolokal shartni qanoatlantiruvchi yechimi, tenglamaning o‘ng tomoni va chegaraviy funksiyani topish bo‘yicha teskari masalalarning yechimi mavjud va yagonaligi isbotlangan;

kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarda hosilaning tartibi va tenglamaning o‘ng tomonini bir vaqtda topish bo‘yicha to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimi mavjud va yagonaligi isbotlangan;

chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan giperbolik va parabolik tenglamalarning yechimi mavjud va yagonaligi isbotlangan;

Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi kasr tartibli tenglamalar va chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimi mavjud va yagona bo‘lishligi isbotlangan;

kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun birinchi chegaraviy masalaning yechimi qurilgan va vaqtga bog‘liq holda to‘g‘ri to‘rtburchakli sohada jarayon oldindan berilgan funksiya kabi bo‘lishligi uchun manba funksiyasini qanday tanlash shartlari topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot ishida kasr tartibli differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish usullari taklif etiladi va ixtiyoriy elliptik operatorli kasr tartibli tenglamalarni yechish usullari taqdim etiladi. Shu bilan birga tenglamaning o‘ng tomonini topish va kasr hosilaning tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masalalarni yechish usuli bayon qilinadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik tahlil, differensial tenglamalar va matematik fizika, fundamental yechimlarni qurish uchun maxsus funksiyalar nazariyasi, chegaraviy muammolarning aniq yechimlarini topish va elliptik tenglamalarni yechish nazariya masalalarini o‘rganish usullaridan qat’iy foydalanish bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasr tartibli differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ularning kasr tartibli tenglamalar bilan berilgan jarayonlarni o‘rganishda, nazorat qilishda va boshqarishda qo‘llanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Eliptik qismi yuqori tartibli bo‘lgan kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan giperbolik va parabolik tenglamalarning yechimi mavjud va yagona bo‘lishlik shartlaridan OT-Ф-4-28 raqamli “Giperbolik sistemalar uchun adekvat hisoblash modellarini qurish” mavzusidagi fundamental loyihada sistemalarning modellarini qurishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 30 sentyabrdagi №04/11-5960-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi giperbolik tipidagi differensial tenglamalar sistemalarning hisoblash modellarini qurish imkonini bergan;

kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun birinchi chegaraviy masalaning yechimidan va manba funsiyasi yordamida boshqarishdan МД-758.2022.1.1 raqamli “Rossiya Prezidentining rossiyalik yosh olimlarni qullab-quvvatlash” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida atmosferadagi radonlarini taqsimlanishini tekshirishda foydalanilgan (Kamchatka davlat universitetining 2022 yil 27 sentyabrdagi № 39-12-sonli ma‘lumotnomasi, Rossiya federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi atmosfera grunt sistemasidagi radonlarni qayta taqsimlash imkonini bergan;

Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi kasr tartibli tenglamalar va chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi differensial tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimlaridan MRU-OT-30/2017 raqamli “Zamonaviy superkompyuterlardan foydalanib, gazodinamika, filtratsiya va transport oqimi dinamikasi masalalarini yechish uchun yuqori aniqlikdagi hisoblash algoritmlari” mavzusidagi fundamental loyihada chegaraviy masalalarni yechishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 4 oktyabrdagi №04/11-6042-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalarining qo’llanishi chegaraviy masalalarni, filtratsiya va boshqaruv masalalarini hisoblash modellarini qurish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot ishining natijalari 28 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda shulardan 13 tasi xalqaro, 15 tasi Respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 42 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining fan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nasrlarda 13 ta maqola, jumladan 9 tasi xorijiy va 4 tasi mahalliy jurnallarda, hamda 1 ta maqola xorijiy jurnalda va 28 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiya 222 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaturati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining asosiy maqsadi kasr tartibli tenglamalar uchun vaqt bo‘yicha nolokal chegaraviy masalalarni o‘rganishdan iborat. Dissertatsiyaning birinchi paragrafida dissertatsiya natijalarini bayon qilishda zarur bo‘ladigan yordamchi ma‘lumotlar keltirilgan. Ikkinchi paragrafida yuqori kasr tartibli differensial tenglamalarning yechimini qurish masalasi o‘rganilgan. Yechimni qurishda R. Ashurov, A. Kabada va B. Turmetovlarning tomonidan Kaputo ma’nosidagi kasr tartibli hosilali chiziqli differensial tenglamalarining yechimini qurish usulidan foydalanilgan. Uchinchi paragrafida esa, Kaputo va Riman-Liuvill ma’nosida kasr tartibli tenglamalar uchun vaqt bo‘yicha nolokal chegaraviy shartli masalalar o‘rganilgan.

Aytaylik, H separabl Hilbert fazosi bo‘lsin. Unda skalyar ko‘paytma va norma aniqlangan bo‘lib, ularni mos ravishda $(\cdot,\cdot)$ va $\|\cdot\|$ kabi belgilaylik. $A: H \to H$ perator H Hilbert fazosida aniqlangan, o‘z-o‘ziga qo‘shma, musbat, chegaralanmagan ixtiyoriy operator bo‘lsin. Faraz qilaylik, A operator H fazoda to‘la ortonormal $\{v_k\}$ xos funksiyalar sistemasiga va $\{\lambda_k\}$ musbat xos qiymatlar to‘plamiga ega bo‘lsin. Xos qiymatlarni qayta nomerlash yordamida ularni kamaymaydigan qilib nomerlab olamiz, ya’ni $0 < \lambda_1 \le \lambda_2 \cdots \to +\infty$ kabi yozib olamiz.

Kuchli integral va kuchli hosila ta’riflaridan foydalanib, $h: \mathrm{R}_+ \to H$ vektor qiymatli funksiyalar (yoki oddiygina funksiyalar) uchun integral va hosilalarning kasr analoglari aniqlanishi mumkin, aniqlangan ta'riflar bir o'zgaruvchi bo'lgan holdagi formulalar va xossalarni saqlanib qoladi.

Aytaylik, $h(t)$ funksiya $[0,\infty)$ da aniqlangan bo'lsin. Agar

$$J_t^{\sigma} h(t) = \frac{1}{\Gamma(\sigma)} \int_0^t \frac{h(\xi)}{(t-\xi)^{1-\sigma}} d\xi, \quad t > 0 \tag{1}$$

tenglikning o'ng tomonidagi integral chekli bo'lsa, u holda ushbu integralga $h(t)$ funksiyaning σ kasr tartibli Riman-Liuvill integrali deyiladi, bunda $\Gamma(\sigma)$ Eylerning gamma funksiyasi. Eslatib o'tamiz, $J_t^0 : h(t) = h(t)$ deb qabul qilingan. Ushbu ta'rifdan foydalanib, $0 < \rho < 1$ bo'lsa, Riman-Liuvill ma'nosida ρ - kasr tartibli hosilaning ta'rifini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\partial_t^{\rho} h(t) = \frac{d}{dt} J_t^{1-\rho} h(t).$$

Agar bu ta'rifda biz differensial va kasr tartibli integralning o'rinlarini almashtiradigan bo'lsak, unda biz Kaputo ma'nosida kasr tartibli hosilasining ta'rifini olamiz:

$$D_t^{\rho} h(t) = J_t^{1-\rho} \frac{d}{dt} h(t).$$

Aytaylik, $\rho \in (0,1)$ bo'lsin. $C((a,b);H)$ orqali H dagi qiymatlari $t \in (a,b)$ oraliqda uzluksiz $u(t)$ funksiyalar to'plamini belgilaylik.

Ushbu paragrafda biz quyidagi masalalarni qaraymiz:

$$\begin{cases} D_t^{\rho} u(t) + Au(t) = f(t), & 0 < t \le T; \\ u(\xi) = \alpha u(0) + \varphi, & 0 < \xi \le T \end{cases} \tag{2}$$

va

$$\begin{cases} \partial_t^{\rho} u(t) + Au(t) = g(t), & 0 < t \le T; \\ J_t^{1-\rho} u(t)|_{t=\xi} = \alpha \lim\limits_{t\to 0} J_t^{1-\rho} u(t) + \phi, & 0 < \xi \le T, \end{cases} \tag{3}$$

bu yerda $f(t), g(t) \in C((0,T];H)$, $\varphi, \phi \in H$ va α – o'zgarmas son, ξ-qo'zg'almas nuqta. Bu muammolarga *to'g'ri masala* deb ataladi .

1-ta'rif. *Agar* $u(t) \in C([0,T];H)$ *funksiya* $D_t^{\rho} u(t), Au(t) \in C((0,T);H)$ *xossalarga ega bo'lib,* (2) *ning barcha shartlarini qanoatlantirsa, u holda bu funksiyaga* (2) *nolokal masalaning* ***yechimi*** *deb ataladi .*

(3) nolokal masala yechimining ta'rifi ham xuddi shunga o'xshash tarzda kiritiladi.

Agar $\alpha = 0$ (va $\xi = T$) bo'lsa, bu muammoga *orqaga qaytish masalasi deb ataladi*. (2) holidagi orqaga qaytish masalasi, masalan, M. Yamamoto va boshqalarning ishlarida batafsil o'rganilgan. (3) holidagi orqaga qaytish masalasi, Sh. Alimov va R. Ashurov ishida o'rganilgan. Shuning uchun, biz faqat nolokal shartda $\alpha \ne 0$ bo'lgan holni o'rganib chiqamiz.

$\rho = 1$ bo'lgan holda, bu muammolar vaqtga bog'liq teskari issiqlik o'tkazuvchanlik masalasi (*retrospektiv teskari masala*) deyiladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu holda $u(T)$ funksiyaning silliqligi ham yechimning barqarorligini kafolatlamaydi.

$\rho=1$, $\alpha=1$ bo'lgan holda, A operator Banax fazosida aniqlangan hol uchun A.O. Ashyralyev va boshqlarning ishlarida o'rganilgan.

Kasr tartibli tenglamalar uchun $u(\xi)=\alpha u(0)+\varphi$ $(J_t^{1-\rho}u(t)|_{t=\xi}=\alpha\lim\limits_{t\to 0}J_t^{1-\rho}u(t)+\phi)$ nolokal shart bilan berilgan masalalar ushbu ishda ilk bor o'rganilmoqda.

Ushbu paragrafda biz (2), (3) masalalarning yechimi mavjud va yagonaligi haqidagi teoremalarini isbotlaymiz. Shu bilan birga yechim mavjudligining α parametr qiymatiga bog'liqligini o'rganamiz. Biz, shuningdek, orqaga qaytish masalalaridan farqli ravishda, (2), (3) masalaning yechimi tenglamaning o'ng tomoniga va φ funksiyaga bog'liqligini isbotlaymiz. Bundan tashqari koersativ tipidagi tengsizliklar olinadi va bu tengsizliklar kasr hosilalarining ko'rib chiqilayotgan turiga qarab farqlanishi ko'rsatilgan. Tenglamaning o'ng tomonini va nolokal shartdagi φ funksiyani aniqlash bo'yicha teskari masalalar o'rganiladi.

(2) masalani yechish uchun biz uni quyidagi ikkita yordamchi masalaga keltirib olamiz:

$$\begin{cases} D_t^\rho \omega(t)+A\omega(t)=f(t), & 0<t\le T; \\ \omega(0)=0, \end{cases} \tag{4}$$

va

$$\begin{cases} D_t^\rho w(t)+Aw(t)=0, & 0<t\le T; \\ w(\xi)=\alpha w(0)+\psi, & 0<\xi\le T, \end{cases} \tag{5}$$

bu yerda $\psi\in H$ berilgan funksiya.

Agar $\psi=\varphi-\omega(\xi)$ va $\omega(t)$ va $w(t)$ mos ravishda (4) va (5) masalalarning yechimlari bo'lsa, $u(t)=\omega(t)+w(t)$ funksiya (2) masalaning yechimi ekanligini tekshirish qiyin emas. Shuning uchun (2) masalani yechish uchun (4) va (5) yordamchi masalalarni yechish kifoya qiladi.

Faraz qilaylik, $\lambda_0>0$ soni $E_\rho(-\lambda_0\xi^\rho)=\alpha$ tenglikni qanoatlantirsin, bu yerda $E_\rho(t)$ Mittag-Leffler funksiyasi. $\lambda_k=\lambda_0$ bo'lib, bu xos son p_0 karrali bo'lsin. Biz bunday k nomerlarni $K_0=\{k_0,k_0+1,...,k_0+p_0-1\}$ deb belgilab olamiz.

τ ixtiyoriy haqiqiy son bo'lsin. Biz H da A operatorning darajasini quyidagicha kiritamiz:

$$A^\tau h=\sum_{k=1}^{\infty}\lambda_k^\tau h_k v_k,$$

bu yerda $h_k=(h,v_k)$ lar $h\in H$ elementning Furye koeffitsiyentlari. Shubhasiz, ushbu operatorning aniqlanish sohasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$D(A^\tau)=\{h\in H:\sum_{k=1}^{\infty}\lambda_k^{2\tau}|h_k|^2<\infty\}.$$

(4) masalani yechish uchun biz quyidagi teoremani isbotlaymiz.

1-teorema. *Aytaylik, qandaydir* $\varepsilon \in (0,1)$ *sonlar uchun* $f(t) \in C([0,T]; D(A^{\varepsilon}))$ *bo'lsin. U holda* (4) *masalaning yagona yechimi mavjud va u yechim quyidagi ko'rinishga ega*

$$\omega(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\int_0^t \eta^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k \eta^{\rho}) f_k(t-\eta) d\eta \right] v_k. \qquad (6)$$

Bundan tashqari quyidagi koersitiv turdagi tengsizlik o'rinli bo'ladi:

$$\| D_t^{\rho} \omega(t) \|^2 + \| \omega(t) \|_1^2 \le C_{\varepsilon} \max_{t \in [0,T]} \| f \|_{\varepsilon}^2, \quad 0 < t \le T, \qquad (7)$$

bu yerda $C_{\varepsilon} > 0$ *o'zgarmas son.*

Agar $f \in H$ funksiya t ga bog'liq bo'lmasa ham, 1 - teoremaning tasdig'i to'g'ri bo'ladi.

1-natija. *Aytaylik,* $f \in H$ *bo'lsin. U holda* (4) *masala yagona yechimga ega va bu yechim quyidagi ko'rinishda bo'ladi*

$$\omega(t) = \sum_{k=1}^{\infty} f_k t^{\rho} E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k t^{\rho}) v_k. \qquad (8)$$

Bundan tashqari, shunday C musbat son topiladiki, quyidagi koersitiv turdagi tengsizlik o'rinli bo'ladi:

$$\| D_t^{\rho} \omega(t) \|^2 + \| \omega(t) \|_1^2 \le C \| f \|^2, \quad 0 < t \le T. \qquad (9)$$

(5) masalani yechish uchun esa quyidagi teoremani isbotlaymiz.

2-teorema. *Aytaylik,* $\psi \in H$ *bo'lsin. Agar* $\alpha \notin (0,1)$ *yoki* $\alpha \in (0,1)$ *bo'lib, lekin barcha* $k \ge 1$ *lar uchun* $\lambda_k \ne \lambda_0$ *bo'lsa,* (5) *masala yagona yechimga ega va bu yechim quyidagi ko'rinishga ega*

$$w(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\psi_k}{E_{\rho}(-\lambda_k \xi^{\rho}) - \alpha} E_{\rho}(-\lambda_k t^{\rho}) v_k. \qquad (10)$$

Agar $\alpha \in (0,1)$ *va* $\lambda_k = \lambda_0$, $(k \in K_0)$ *bo'lsa,*

$$\psi_k = (\psi, v_k) = 0, \quad k \in K_0; \quad K_0 = \{k_0, k_0+1, ..., k_0 + p_0 - 1\}, \qquad (11)$$

ortogonallik shartlari bajarilgan deb faraz qilamiz. U holda (5) *masalaning yechimi* b_k, $k \in K_0$ *ixtiyoriy koeffitsiyentlar bilan quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi*

$$w(t) = \sum_{k \notin K_0} \frac{\psi_k}{E_{\rho}(-\lambda_k \xi^{\rho}) - \alpha} E_{\rho}(-\lambda_k t^{\rho}) v_k + \sum_{k \in K_0} b_k E_{\rho}(-\lambda_k t^{\rho}) v_k. \qquad (12)$$

Bundan tashqari quyidagi koersitiv turdagi tengsizlik o'rinli bo'ladi:

$$\| D_t^{\rho} w(t) \|^2 + \| w(t) \|_1^2 \le C_{\alpha} t^{-2\rho} \| \psi \|^2, \quad 0 < t \le T, \qquad (13)$$

bu yerda $C_{\alpha} > 0$ *o'zgarmas son.*

(2) masalaning yechimi quyidagi teoremada aks etgan.

3-teorema. *Aytaylik,* $\varphi \in H$ *va ba'zi* $\varepsilon \in (0,1)$ *lar uchun* $f(t) \in C([0,T]; D(A^{\varepsilon}))$ *bo'lsin. Agar* $\alpha \notin (0,1)$ *yoki* $\alpha \in (0,1)$ *bo'lib, lekin barcha*

$k \geq 1$ lar uchun $\lambda_k \neq \lambda_0$ bo'lsa, u holda (2) *masala yagona yechimga ega va bu yechim quyidagi ko'rinishga ega*

$$u(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\frac{\varphi_k - \omega_k(\xi)}{E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho) - \alpha} E_\rho(-\lambda_k t^\rho) + \omega_k(t) \right] v_k, \qquad (14)$$

Agar $\alpha \in (0,1)$ va $k \in K_0$ lar uchun $\lambda_k = \lambda_0$ mavjud bo'lsa, hamda

$$(\varphi, v_k) = (\omega(\xi), v_k), \ k \in K_0; \ K_0 = \{k_0, k_0 + 1, ..., k_0 + p_0 - 1\}. \qquad (15)$$

ortogonallik shartlari bajarilgan bo'lsa, u holda (2) *masala yechimi b_k, $k \in K_0$ ixtiyoriy koeffitsiyentlar bilan quyidagi ko'rinishga ega*

$$u(t) = \sum_{k \notin K_0} \left[\frac{\varphi_k - \omega_k(\xi)}{E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho) - \alpha} E_\rho(-\lambda_k t^\rho) + \omega_k(t) \right] v_k + \sum_{k \in K_0} b_k E_\rho(-\lambda_k t^\rho) v_k. \qquad (16)$$

Bundan tashqari, $C_\alpha > 0$ va $C_\varepsilon > 0$ sonlar mavjud bo'lib, quyidagi koersitiv turdagi tengsizlik o'rinli bo'ladi:

$$\| D_t^\rho u(t) \|^2 + \| u(t) \|_1^2 \leq C_\alpha t^{-2\rho} \| \varphi \|^2 + C_\varepsilon \max_{t \in [0,T]} \| f \|_\varepsilon^2, \quad 0 < t \leq T. \qquad (17)$$

Teskari masalalarni yechishda bizga qo'shimcha shart kerak bo'ladi. Biz ikki hol uchun ham qo'shimcha shart sifatida quyidagi shartdan foydalanamiz:

$$u(\tau) = \Psi, \quad 0 < \tau \leq T, \quad \tau \neq \xi. \qquad (18)$$

Teskari masalalarni o'rganishda biz $f \in H$ fnksiyani t ga bog'liq emas deb qaraymiz. E'tibor bering, agar $\tau = \xi$ bo'lsa, (2) dagi nolokal shart Koshi shartiga to'g'ri keladi $u(0) = \varphi_1$ ($\alpha \neq 0$). Bunday teskari masalalar oldingi ishlarda o'rganilgan.

2-ta'rif. *Agar $u(t) \in C([0,T]; H)$ va $f \in H$ funksiyalar $D_t^\rho u(t), Au(t) \in C((0,T]; H)$ xossalarga ega bo'lib,* (2), (18) *shartlarni qanoatlantirsa, u holda $\{u(t), f\}$ funksiyalar juftiga* (2), (18) *teskari masalaning* ***yechimi*** *deyiladi .*

Tenglamaning o'ng tomonini topish bo'yicha teskari masalani $\alpha \geq 1$ va $0 < \alpha < 1$ hollar uchun alohida-alohida o'rganamiz. $\alpha \geq 1$ bo'lgan hol uchun olingan natijani keltiramiz.

4-teorema. *Aytaylik, φ, $\Psi \in D(A)$ va $\alpha \geq 1$ bo'lsin. U holda* (2), (18) *teskari masalaning $\{u(t), f\}$ yagona yechimi mavjud va bu yechim quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi*

$$f = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\frac{\alpha - E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho)}{E_\rho(-\lambda_k \tau^\rho) \xi^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k \xi^\rho) + \tau^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k \tau^\rho)[\alpha - E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho)]} \Psi_k + \right.$$
$$\left. + \frac{E_\rho(-\lambda_k \tau^\rho)}{E_\rho(-\lambda_k \tau^\rho) \xi^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k \xi^\rho) + \tau^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k \tau^\rho)[\alpha - E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho)]} \varphi_k \right] v_k, \qquad (19)$$

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}\left[\frac{E_\rho(-\lambda_k t^\rho)}{E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)-\alpha}[\varphi_k-f_k\xi^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k\xi^\rho)]+f_k t^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k t^\rho)\right]v_k. \quad (20)$$

Endi yuqorida aytganimizdek, $0<\alpha<1$ bo‘lgan hol uchun olingan natijalarni alohida keltiramz. Bu holda teskari masalaning yechimi mavjud va yagonaligi ξ va τ nuqtalarning joylashishiga ham bog‘liq bo‘ladi.

5-teorema. *Aytaylik,* $0<\alpha<1$, $\varphi,\Psi\in D(A)$ *va* (15) *ortogonallik shartlari bajarilsin. Agar* $0<\tau<\xi$ bo‘lsa, *u holda* (2), (18) *teskari masalaning* $\{u(t),f\}$ *yagona yechimi mavjud va bu yechim quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi*

$$f=\sum_{k\notin K_0}\left[\frac{\alpha-E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)}{E_\rho(-\lambda_k\tau^\rho)\xi^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k\xi^\rho)+\tau^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k\tau^\rho)[\alpha-E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)]}\Psi_k+\right.$$

$$\left.+\frac{E_\rho(-\lambda_k\tau^\rho)}{E_\rho(-\lambda_k\tau^\rho)\xi^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k\xi^\rho)+\tau^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k\tau^\rho)[\alpha-E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)]}\varphi_k\right]v_k, \quad (21)$$

$$u(t)=\sum_{k\notin K_0}\left[\frac{E_\rho(-\lambda_k t^\rho)}{E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)-\alpha}[\varphi_k-f_k\xi^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k\xi^\rho)]+f_k t^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k t^\rho)\right]v_k.$$

$$+\sum_{k\in K_0}\frac{E_\rho(-\lambda_k t^\rho)\Psi_k}{E_\rho(-\lambda_k\tau^\rho)}v_k. \quad (22)$$

(2) masalada $u(t)$ va $u(\xi)=\alpha u(0)+\varphi$ nolokal shartdagi φ funksiya ham noma’lum deb faraz qilamiz. Ushbu teskari masalaga chegaraviy funksiyani topish bo‘yicha *teskari masala* deb ataladi. Ushbu teskari masalani hal qilish uchun bizga qo‘shimcha shart kerak bo‘ladi. Shuning uchun biz qo‘shimcha shart sifatida yana oldingi (18) shartdan foydalanamiz.

3-ta’rif. *Agar* $u(t)\in C([0,T];H)$ *funksiya* $D_t^\rho u(t), Au(t)\in C((0,T);H)$ *xossalarga ega bo‘lib,* $u(t)$ *va* $\varphi\in H$ *funksiyalar* (2), (18) *shartlarni qanoatlantiruvchi bo‘lsa, u holda* $\{u(t),\varphi\}$ *juftlik* (2), (18) *teskari* ***masalaning yechimi*** *deb ataladi .*

Yuqorida ta’kidlanganidek, α parametrga qo‘shimcha shart qo‘yish orqali yechimning yagonaligini isbotlashni soddalashtirish mumkin, shuning uchun bu masalani ikki hol $E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)\neq\alpha$ va $E_\rho(-\lambda_0\xi^\rho)=\alpha$ bo‘lgan hollar uchun o‘rganib chiqamiz.

6-teorema. *Aytaylik,* $\Psi\in D(A)$, *qandaydir* $\varepsilon\in(0,1)$ *lar uchun* $f\in C([0,T];D(A^\varepsilon))$ *bo‘lsin. Agar* $\alpha\notin(0,1)$ *yoki* $\alpha\in(0,1)$ *bo‘lib, lekin barcha* $k\geq 1$ *lar uchun* $\lambda_k\neq\lambda_0$ *bo‘lsa, u holda* (2), (18) *teskari masalaning* $\{u(t),\varphi\}$ *yagona yechimi mavjud va u quyidagi ko‘rinishga ega*

$$\varphi=\sum_{k=1}^{\infty}\left[\frac{E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)-\alpha}{E_\rho(-\lambda_k\tau^\rho)}[\Psi_k-\omega_k(\tau)]+\omega_k(\xi)\right]v_k, \quad (23)$$

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}\left[\frac{\varphi_k-\omega_k(\xi)}{E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)-\alpha}E_\rho(-\lambda_k t^\rho)+\omega_k(t)\right]v_k, \tag{24}$$

bu yerda $\omega_k(t)=\int_0^t \eta^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k\eta^\rho)f_k(t-\eta)d\eta.$

Endi $\alpha\in(0,1)$ bo‘lgan hol uchun quyidagi teoremani keltiramiz.

7-teorema. *Aytaylik,* $\alpha\in(0,1)$, $\Psi\in D(A)$, *qandaydir* $\varepsilon\in(0,1)$ *lar uchun* $f\in C([0,T];D(A^\varepsilon))$ *bo‘lsin, hamda* (15) *ortogonallik shartlari bajarilsa, u holda* (2), (18) *teskari masalaning* $\{u(t),\varphi\}$ *yagona yechimi mavjud va bu yechim quyidagi ko‘rinishga ega*

$$\varphi=\sum_{k\notin K_0}\left[\frac{E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)-\alpha}{E_\rho(-\lambda_k\tau^\rho)}[\Psi_k-\omega_k(\tau)]+\omega_k(\xi)\right]v_k, \tag{25}$$

$$u(t)=\sum_{k\notin K_0}\left[\frac{\varphi_k-\omega_k(\xi)}{E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)-\alpha}E_\rho(-\lambda_k t^\rho)+\omega_k(t)\right]v_k+\sum_{k\in K_0}\frac{E_\rho(-\lambda_k t^\rho)\Psi_k}{E_\rho(-\lambda_k\tau^\rho)}v_k, \tag{26}$$

bu yerda $\omega_k(t)=\int_0^t \eta^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k\eta^\rho)f_k(t-\eta)d\eta.$

Yuqorida Kaputo ma’nosidagi kasr tartibli hosilali subdiffuziya tenglamalari uchun olingan barcha natijalar Riman-Liuvill ma’nosida kasr tartibli hosilali tenglamalar uchun ham o‘rinli bo‘ladi, albatta natijalar ozgina o‘zgaradi. Shuning uchun biz Riman-Liuvill ma’nosida kasr hosilali bir jinsli subdiffuziya tenglamasi uchun yuqoridagi natijalarni keltirish bilan kifoyalanamiz.

Quyidagi masalani qaraylik:

$$\begin{cases}\partial_t^\rho u(t)+Au(t)=0, & 0<t\le T;\\ J_t^{1-\rho}u(t)|_{t=\xi}=\alpha\lim\limits_{t\to0}J_t^{1-\rho}u(t)+\phi, & 0<\xi\le T,\end{cases} \tag{27}$$

bu yerda $\phi\in H$ va α ixtiyoriy soni.

Yuqorida aytib o‘tilganidek (oldingi bo‘limga qarang) biz faqat barcha $k\ge1$ lar uchun $E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)\ne\alpha$ bo‘lgan holni ko‘rib chiqamiz.

8-teorema. *Aytaylik,* $\phi\in H$ *va barcha* $k\ge1$ *lar uchun* $E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)\ne\alpha$ *bo‘lsin. U holda* (27) *masalaning yagona yechimi mavjud va bu yechim quyidagi ko‘rinishga ega*

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}\frac{\phi_k}{E_\rho(-\lambda_k\xi^\rho)-\alpha}t^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t^\rho)v_k. \tag{28}$$

Shu bilan birga shunday o‘zgarmas $C_\xi>0$ *son mavjud bo‘lib, quyidagi koersitiv tengsizlik o‘rinli bo‘ladi:*

$$\|\partial_t^\rho u(t)\|_1^2+\|u(t)\|_2^2\le C_\xi t^{-2\rho-2}\|\phi\|^2,\quad 0<t\le T. \tag{29}$$

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafda nolokal-chegaraviy masala o‘rganilgan bo‘lib, Riman-Liuvill ma’nosida kasr hosilali tenglamalar uchun klassik yechimni topish, tenglamaning o‘ng tomoni va nolokal shartdagi φ funksiyani topish masalalari o‘rganilgan.

Aytaylik, Ω yetarli darajada silliq $\partial\Omega$ chegaraga ega bo‘lgan, ixtiyoriy N o‘lchovli soha bo‘lsin. Quyidagi nolokal-chegaraviy masalani qaraymiz:

$$\partial_t^\rho u(x,t) - \Delta u(x,t) = f(x,t), \quad x \in \Omega, \quad 0 < t \le T; \tag{30}$$

$$u(x,t)|_{\partial\Omega} = 0; \tag{31}$$

$$J_t^{1-\rho} u(x,t)|_{t=\xi} = \alpha \lim_{t\to 0} J_t^{1-\rho} u(x,t) + \varphi(x), \quad 0 < \xi \le T, \quad x \in \overline{\Omega}, \tag{32}$$

bu yerda $f(x,t)$, $\varphi(x)$ berilgan funksiyalar, α o‘zgarmas son, ξ – tayinlangan nuqta va Δ – Laplas operatori. (30) – (32) masalaga *to‘g‘ri masala* deb ataladi.

4-ta’rif. *Quyidagi xossalarga ega $u(x,t)$ funksiya*

1. $t^{1-\rho} u(x,t) \in C(\overline{\Omega} \times [0,T])$,

2. $\partial_t^\rho u(x,t), \Delta u(x,t) \in C(\overline{\Omega} \times (0,T])$,

(30) - (32) *to‘g‘ri masalaning* ***klassik yechimi*** *deyiladi* .

Krasnoselskiy va boshqalarning quyidagi lemmasi ushbu paragrafda muhim rol o‘ynaydi.

1-lemma. *Aytaylik, $\tau > \frac{|\alpha|}{m} + \frac{N}{2m}$ bo‘lsin. U holda barcha $|\alpha| \le m$ lar uchun $D^\alpha (A+I)^{-\tau}$ operator $L_2(\Omega)$ ni $C(\overline{\Omega})$ ga uzluksiz (to‘laligicha) akslantiradi va quyidagi baholash o‘rinli bo‘ladi:*

$$\| D^\alpha (A+I)^{-\tau} g \|_{C(\Omega)} \le C \| g \|_{L_2(\Omega)} .$$

To‘g‘ri va teskari masalalarning yechimlari mavjudligini isbotlashda

$$\sum_{k=1}^{\infty} \lambda_k^\tau |h_k|^2, \quad \tau > \frac{N}{2}, \tag{33}$$

ko‘rinishdagi qatorlarning yaqinlashuvchi ekanligini o‘rganish kerak bo‘ladi, bunda h_k lar $h(x)$ funksiyaning Furye koeffitsiyentlari. τ sonining butun qiymatlarida (33) qatorning yaqinlashishi uchun $h(x)$ funksiyaning qaysi $W_2^k(\Omega)$ klassik Sobolev fazolariga tegishligi bo‘lishlik shartlari V.A. Il'inning fundamental ishida ko‘rsatilgan. Ushbu shartlarni keltirish uchun biz $\dot{W}_2^1(\Omega)$ sinfni kiritamiz. Ω sohada uzluksiz differensiallanuvchi va $\partial\Omega$ chegaraning atrofida nolga teng barcha funksiyalar to‘plamini $W_2^1(\Omega)$ ning normasi bo‘yicha yopilmasini belgilaymiz.

Demak, agar $h(x)$ funksiya quyidagi

$$h(x) \in W_2^{[\frac{N}{2}]+1}(\Omega) \ \text{ va } h(x), \Delta h(x), \cdots, \Delta^{[\frac{N}{4}]} h(x) \in \dot{W}_2^1(\Omega), \tag{34}$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda (33) qator yaqinlashuvchi bo‘ladi (agar N juft bo‘lsa, $\tau = \frac{N}{2} + 1$, agar N toq $\tau = \frac{N+1}{2}$ deb olish mumkin).

Xuddi shunday, agar (33) da τ ni $\tau + 2$ ga almashtirsak, yaqinlashish shartlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$h(x) \in W_2^{[\frac{N}{2}]+3}(\Omega), \quad \text{va} \quad h(x),\ \Delta h(x), \cdots,\ \Delta^{[\frac{N}{4}]+1} h(x) \in \dot{W}_2^1(\Omega). \qquad (35)$$

To‘rtinchi paragrafning asosiy natijasini keltiramiz:

9-teorema. *Aytaylik,* $\varphi(x)$ *va* $t^{1-\rho} f(x,t)$ (*barcha* $t \in [0,T]$ *uchun*) *funksiyalar* (34) *shartlarni qanoatlantirsin. Agar* $\alpha \notin [0,1)$ *yoki* $\alpha \in (0,1)$, *lekin barcha* k *lar uchun* $\lambda_k \neq \lambda_0$ *bo‘lsa, u holda* (30) - (32) *masalaning yagona yechimi mavjud va bu yechim quyidagi*

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\frac{\varphi_k - \omega_k(\xi)}{E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho) - \alpha} t^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t^\rho) + \omega_k(t) \right] v_k(x), \qquad (36)$$

ko‘rinishda bo‘ladi, bu yerda $\omega_k(t) = \int_0^t \eta^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k \eta^\rho) f_k(t-\eta) d\eta.$

Agar $\alpha \in (0,1)$ *va* $\lambda_k = \lambda_0, k \in K_0$ *bo‘lsa,* (15) *ortogonallik shartlari bajarilgan deb faraz qilamiz. U holda* (30) – (32) *masala yechimi ixtiyoriy* b_k, $k \in K_0$ *koeffitsiyentlar bilan quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:*

$$u(x,t) = \sum_{k \notin K_0} \left[\frac{\varphi_k - \omega_k(\xi)}{E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho) - \alpha} t^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t^\rho) + \omega_k(t) \right] v_k(x) +$$
$$+ \sum_{k \in K_0} b_k t^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t^\rho) v_k(x) \qquad (37)$$

Ushbu paragrafda biz tenglamaning o‘ng tomonini va chegaraviy funksiyani topish bo‘yicha teskari masalalarni ham o‘rganamiz. Teskari masalani o‘rganish uchun bizga qo‘shimcha shart kerak bo‘ladi. Qo‘shimcha shart sifatida

$$u(x,\theta) = \Psi(x), \quad 0 < \theta \le T, \quad \theta \neq \xi, \quad x \in \overline{\Omega}, \qquad (38)$$

shartni olamiz. Bu yerda manba funksiyasini ifodalovchi $f(x)$ noma’lum funksiya t ga bog‘liq emas va $\Psi(x)$ berilgan funksiya.

10-teorema. *Aytaylik,* $\varphi(x)$, $\Psi(x)$ *funksiyalar* (35) *shartlarni qanoatlantirsin. U holda* (30) - (32), (38) *teskari masalaning* $\{u(x,t), f(x)\}$ *yagona yechimi mavjud va bu yechim quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi*

$$f(x) =$$
$$= \sum_{k=1}^{\infty} \left[\frac{\alpha - E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho)}{\theta^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k \theta^\rho) \xi^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k \xi^\rho) + \theta^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k \theta^\rho)[\alpha - E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho)]} \Psi_k + \right.$$
$$\left. + \frac{\theta^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k \theta^\rho)}{\theta^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-\lambda_k \theta^\rho) \xi^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k \xi^\rho) + \theta^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k \theta^\rho)[\alpha - E_\rho(-\lambda_k \xi^\rho)]} \varphi_k \right] v_k(x), \qquad (39)$$

$$u(x,t)=$$

$$=\sum_{k=1}^{\infty}\left[\frac{E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t^{\rho})}{E_{\rho}(-\lambda_k \xi^{\rho})-\alpha}t^{\rho-1}[\varphi_k - f_k\xi^{\rho}E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k\xi^{\rho})]+f_k t^{\rho}E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k t^{\rho})\right]v_k(x). \tag{40}$$

Faraz qilaylik, (30) - (32) masalada nafaqat $u(x,t)$ funksiya, balki nolokal shartdagi $\varphi(x)$ funksiya ham noma'lum bo'lsin. $\{u(x,t),\varphi(x)\}$ funksiyalar juftini topish masalasiga φ funksiyani aniqlashning teskari masalasi deb ataladi. Ushbu teskari masalani yechish uchun qo'shimcha shart sifatida biz yana (38) shartni olamiz.

11-teorema. *Aytaylik,* $t^{1-\rho}f(x,t)$ *ifoda* x *ning funksiyasi sifatida barcha* $t\in[0,T]$ *larda* (34) *shartlarni qanoatlantirsin va* $\Psi(x)$ *funksiya* (38) *shartlarni qanoatlantirsin. U holda* (30) - (32), (38) *teskari masala* $\{u(x,t),\varphi(x)\}$ *yagona yechimga ega va bu yechim quyidagi ko'rinishda bo'ladi*

$$\varphi(x)=\sum_{k=1}^{\infty}\left[\frac{E_{\rho}(-\lambda_k\xi^{\rho})-\alpha}{\theta^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k\theta^{\rho})}[\Psi_k-\omega_k(\theta)]+\omega_k(\xi)\right]v_k(x), \tag{41}$$

$$u(x,t)=\sum_{k=1}^{\infty}\left[\frac{\varphi_k-\omega_k(\xi)}{E_{\rho}(-\lambda_k\xi^{\rho})-\alpha}t^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t^{\rho})+\omega_k(t)\right]v_k(x), \tag{42}$$

bu yerda $\omega_k(t)=\int_0^t \eta^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k\eta^{\rho})f_k(t-\eta)d\eta.$

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi vaqt bo'yicha hosilaning tartibi va tenglamaning o'ng tomonini topish bo'yicha teskari masalalarni yechishga bag'ishlangan.

Hosilaning tartibini aniqlash bo'yicha ko'plab olimlar izlanishlar olib borishgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ishlarning barchasida quyidagi munosabat qo'shimcha shart sifatida qabul qilingan

$$u(x_0,t)=h(t),\ \ 0<t<T,$$

bu yerda $x_0\in\Omega$ kuzatuv nuqtasi. Mutaxassislar, asosan, kasr hosilasining tartibini aniqlashning teskari masalasida yechimning yagonaligini o'rgandilar.

Faqat estoniyalik matematik Jaan Jannoning maqolasi mavjudlik va yagonalik masalasiga bag'ishlangan. J. Janno o'zining maqolasida Kaputo hosilali bir o'zgaruvchili vaqt bo'yicha subdiffuziya tenglamasini ko'rib chiqdi. Muallif qo'shimcha chegaraviy shart sifatida $Bu(\cdot,t)=h(t),\ \ 0<t<T$ ni oldi, bunda B biror operator, u tenglamada hosila tartibini va integral operator yadrosining aniqlash uchun mavjudlik teoremasini isbotlashga muvaffaq bo'ldi.

2019 yil Z. Li va boshqalar tomonidan chop etilgan maqolada "Ochiq muammolar" bo'limida to'g'ri ta'kidlangan edi: "Kasr hosilaning tartiblarini tiklashning teskari muammolari bo'yicha tadqiqotlar qoniqarli emas, chunki barcha maqolalar ... muammoni $t\in(0,\infty)$ da o'rganishgan. Teskari masalani kuzatish ma‘lumotlari sifatida belgilangan tayin vaqtda yechimning qiymati bo‘yicha o‘rganish qiziqarli bo‘lar edi”.

Ushbu bobda yuqorida ta’kidlangan muammo qisman hal qilingan bo‘lib, biz kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarda tenglamaning tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masalaning yechimi mavjud va yagonaligini isbotlaymiz. Buning uchun qo‘shimcha shart sifatida “Ochiq muammolar” bo‘limida ta’kidlanganidek, kuzatuv nuqtasi sifatida yechimning tayin vaqtdagi qiymatini olamiz. Buning uchun biz t_0 tayinlangan vaqtda berilgan quyidagi qo‘shimcha shartdan foydalanamiz:

$$U(\rho;t_0) \equiv \int_{\mathrm{T}^N} u(x,t_0)dx = d_0, \quad t_0 \geq T_0, \tag{43}$$

bu yerda T_0 o‘zgarmas son.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida N - o‘lchovli torda o‘zgarmas koeffitsiyentli ixtiyoriy elliptik differensial operatorli, bir jinsli bo‘lmagan subdiffuziya tenglamasida vaqt bo‘yicha kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlash uchun teskari masala ko‘rib chiqilgan. Klassik Furye usulidan foydalanib, tayinlangan vaqtdagi yechimning qiymati haqidagi ma‘lumotlarga tayangan holda kasr hosilaning tartibini qayta tiklash masalasi o‘rganilgan. Shu bilan birga ixtiyoriy N o‘lchovli sohaga va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli elliptik operatorlar holi uchun umumlashtirish masalasi ham qarab chiqilgan.

Faraz qilaylik, $A(D) = \sum_{|\alpha|=m} a_\alpha D^\alpha$ o‘zgarmas koeffitsiyentli, bir jinsli, simmetrik elliptik differensial operator bo‘lsin, ya’ni barcha $\xi \neq 0$ lar uchun $A(\xi) > 0$ bo‘lsin, bu yerda $\alpha = (\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_N)$ - multi-indeks va $D = (D_1, D_2, ..., D_N)$, $D_j = \frac{\partial}{\partial x_j}$. Biz $C^m(\mathrm{T}^N)$ orqali, har bir x_j o‘zgaruvchi bo‘yicha 2π davrli $C^m(\mathrm{R}^N)$ dan olingan $v(x)$ funksiyalar sinfini belgilaymiz. Aytaylik, A operator $C^m(\mathrm{T}^N)$ da aniqlangan $Av(x) = A(D)v(x)$ ko‘rinishdagi standart operator bo‘lsin. Faraz qilaylik, $\rho \in (0,1)$ bo‘lsin.

Quyidagi boshlang‘ich-chegaraviy masalani qaraylik

$$\partial_t^\rho u(x,t) + Au(x,t) = f(x,t), \quad x \in \mathrm{T}^N, \quad 0 < t \leq T, \tag{44}$$

$$\lim_{t\to 0} J_t^{1-\rho} u(x,t) = \varphi(x), \quad x \in \mathrm{T}^N. \tag{45}$$

Quyidagi

$$f_0 = const, \quad \varphi_0^2 + f_0^2 \neq 0, \tag{46}$$

shartlar bajarilganda kasr tartibli hosilaning tartibini topish uchun klassik Furye usuliga asoslangan usuldan foydalanamiz. Agar (46) shartlar bajarilmasa bu usul murakkab bo‘lib qoladi. (43) dagi T_0 parametrni quyidagicha aniqlaymiz

$$T_0=\begin{cases} 2, & \varphi_0 f_0 \ge 0,\\ \max\left\{5, 4\dfrac{|\varphi_0|}{|f_0|}\right\}, & \varphi_0 f_0 < 0.\end{cases}$$

Endi ushbu paragrafning asosiy natijasini keltiramiz.

12-teorema. *Aytaylik* (46) *shartlar bajarilsin,* $\tau > \dfrac{N}{2m}$ *va*

(*a*) $\varphi \in D(\hat{A}^\tau)$;

(*b*) $f(x,t) \in D(\hat{A}^\tau)$ *barcha* $t \in [0,T]$ *da;*

(*c*) $F(t) = \hat{A}^\tau f(x,t)$ *barcha* $t \in [0,T]$ *lar uchun* $L_2(\mathrm{T}^N)$ *fazoning normasida uzluksiz bo'lsin.*

U holda (43) – (45) *teskari masala,* $\{u(x,t), \rho\}$ *yagona yechimga ega bo'ladi, faqat va faqat quyidagi qo'sh tengsizlik o'rinli bo'lsa*

$$\min\{f_0, \varphi_0 + t_0 f_0\} < d_0 < \max\{f_0, \varphi_0 + t_0 f_0\}.$$

2-lemma. *Aytaylik,* (46) *shartlar bajarilsin va* $t_0 \ge T_0$ *bo'lsin. U holda* $U(\rho; t_0)$ *funksiya,* $\rho \in (0,1)$ *funksiyasi sifatida qat'iy monoton va*

$$\lim_{\rho\to 0} U(\rho; t_0) = f_0, \quad U(1; t_0) = \varphi_0 + t_0 f_0 \tag{47}$$

tengliklar bajariladi.

13-teorema. *Aytaylik,* $\tau > \dfrac{N}{2m}$ *va* 12-*teoremadagi* (*a*) – (*c*) *shartlar bajarilgan bo'lsin. U holda* (43) - (45) *boshlang'ich-chegaraviy masalaning yagona yechimi mavjud va u quyidagi ko'rinishga ega*

$$u(x,t) = \sum_{n\in \mathrm{Z}^N} [\varphi_n t^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-A(n)t^\rho) + \int_0^t f_n(t-\xi)\xi^{\rho-1} E_{\rho,\rho}(-A(n)\xi^\rho)d\xi] e^{inx}, \tag{48}$$

har bir $t \in (0,T]$ *da* $x \in \mathrm{T}^N$ *bo'yicha absolyut va tekis yaqinlashadi.*

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida biz vaqt bo'yicha kasr tartibli to'lqin tenglamalarida kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlash masalasi bilan tanishamiz.

Bu paragrafda Gerasimov-Kaputo ma'nosida kasr hosilasining tartibini aniqlash bo'yicha teskari masalasi o'rganilgan. O'rganilayotgan masalada tenglamaning elliptik qismi musbat, o'z-o'ziga qo'shma, chegaralanmagan A diskret spektrga ega bo'lgan ixtiyoriy operatoridan iborat. Klassik Furye usulidan foydalanib, tayinlangan vaqtda yechimning biror xos funksiyaga proyeksiyasining qiymati hosilaning tartibini aniqlab beradi. A operatorga misol sifatida jumladan, kasr tartibli differensial tenglamalarning chiziqli sistemasi, Shturm-Liuvill kasr operatorlari va boshqalar ko'rib chiqiladi.

Aytaylik, $\beta \in (1,2)$ berilgan son bo'lsin. $C((a,b); H)$ orqali $t \in (a,b)$ larda H dagi qiymati uzluksiz $u(t)$ funksiyalar to'plamini belgilaymiz.

Quyidagi Koshi masalasini qaraylik:

$$D_t^\beta u(t) + Au(t) = f, \quad 0 < t \le T, \tag{49}$$

$$u(0)=\varphi, \quad u'(0)=\psi, \tag{50}$$

bu yerda f, φ va ψ vektorlar H da berilgan.

5-ta'rif. *Quyidagi xossalarga ega*

1. $u(t),\ u'(t)\in C([0,T];H)$,

2. $D_t^{\beta}u(t),\ Au(t)\in C((0,T];H)$

va (49), (50) *shartlatni qanoatlantiruvchi* $u(t)$ *funksiya* (49), (50) *Koshi masalasining yechimi deb ataladi.*

Ikkinchi paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremalardan iborat.

14-teorema. *Aytaylik,* $\psi, f\in H$ *va* $\varphi\in D(A^{\frac{1}{\beta}})$ *bo'lsin. U holda* (49), (50) *Koshi masalasi yagona yechimga ega va u quyidagi ko'rinishda bo'ladi:*

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}[\varphi_k E_{\beta,1}(-\lambda_k t^{\beta})+\psi_k t E_{\beta,2}(-\lambda_k t^{\beta})+f_k t^{\beta} E_{\beta,\beta+1}(-\lambda_k t^{\beta})]v_k, \tag{51}$$

bu yerda qator barcha $t\ge 0$ *larda* H *da yaqinlashuvchidir*.

Endi teskari masalani keltiramiz. Faraz qilaylik, $\beta\in(1,2)$ noma'lum parametr bo'lsin. Ushbu paragrafning asosiy maqsadi ushbu parametrni aniqlashning teskari masalasini o'rganishdir. Tabiiyki, β parametri aniqlash uchun qo'shimcha shart kerak bo'ladi. Biz qo'shimcha shart sifatida quyidagi shartni olamiz:

$$U(\beta;t_0)\equiv(u(t_0),v_{k_0})=d_0, \quad t_0\ge T_0, \tag{52}$$

bu yerda d_0 berilgan son, T_0 quyida aniqlangan musbat son va $k_0\ge 1$ ixtiyoriy butun son bo'lib, shundayki $f_{k_0}^2+\varphi_{k_0}^2+\psi_{k_0}^2\ne 0$ (aniqki, bunday son mavjud, chunki f, φ va ψ bir vaqtda nolga teng emas), v_{k_0} xos funksiya.

(49) - (50) masalaning (52) qo'shimcha shartni qanoatlantiruvchi yechimini topishga *teskari masala* deb ataladi.

6-ta'rif. *Agar* $u(t)$ *funksiya* (49) - (50) *masalaning* (52) *shartni qanoatlantiradigan yechimi bo'lsa,* $\{u(x,t),\beta\}$, $\beta\in[\beta_1,\beta_2]$ *juftligi teskari masala yechimi deb ataladi.*

3-lemma. *Aytaylik,*

$$\psi, f\in H;\ \ \varphi\in D(A^{\frac{1}{\beta_1}}), \tag{53}$$

$$\|\psi\|+\|\varphi-A^{-1}f\|\ne 0 \tag{54}$$

bo'lsin. U holda shunday $T_0=T_0(k_0)$ *son mavjudki, barcha* $t_0\ge T_0$ *lar uchun* $U(\beta;t_0)$ *funksiya* $[\beta_1,\beta_2]$ *oraliqda qat'iy monoton bo'ladi.*

Bu lemma, shubhasiz, ushbu maqolaning quyidagi asosiy natijasini nazarda tutadi.

15-teorema. *Aytaylik,* (53) *va* (54) *shartlar bajarilgan bo'lsin. U holda barcha* $t_0\ge T_0$ *lar uchun teskari masalaning yechimi mavjud va yagonadir.*

Eslatma. *Agar teoremaning* (54) *sharti bajarilmasa, ya'ni* $\psi=0$ *va* $\varphi=A^{-1}f$ *bo'lsa, u holda barcha* k *lar uchun* $\psi_k=0$ *va* $\varphi_k=f_k/\lambda_k$ *bo'ladi. Bu holda Koshi masalasining yagona yechimi quyidagi shaklga ega*

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}\frac{f_k}{\lambda_k}v_k,$$

ya'ni ifoda β *ga bog'liq emas. Shuning uchun,* $U(\beta;t_0)$ *funksiya ham* β *ga bog'liq emas. Shunday qilib, bu holda, o'rganilayotgan teskari masala ma'noga ega emas.*

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida, kasr tartibli hosilasining tartibini va tenglamaning o'ng tomoni bir vaqtning o'zida aniqlash bo'yicha teskari masalani o'rganamiz.

Aytaylik, Ω yetarlicha silliq $\partial\Omega$ chegaraga ega bo'lgan ixtiyoriy N-o'lchovli soha bo'lsin. Faraz qilaylik, $\partial\Omega$ chegaraning berilgan koordinatalar sistemasidagi tenglamasini aniqlaydigan funksiya ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi funksiyadan iborat.

Quyidagi boshlang'ich-chegaraviy masalani qaraylik:

$$\begin{cases}\partial_t^{\rho}u(x,t)-\Delta u(x,t)=f(x),\, x\in\Omega, \quad 0<t<T;\\ Bu(x,t)=\dfrac{\partial u(x,t)}{\partial n}=0, \quad x\in\partial\Omega, \quad 0<t<T;\\ \lim\limits_{t\to 0}J_t^{1-\rho}u(x,t)=\varphi(x), \quad x\in\overline{\Omega},\end{cases} \tag{55}$$

bu yerda Δ – Laplas operatori, $\varphi(x)$ oldindan berilgan funksiya va n vektor $\partial\Omega$ ning tashqi normali.

Ushbu ishda, shuningdek, kasr tartibli hosilaning tartibini aniqlash uchun qo'shimcha shart sifatida quyidagi

$$U(\rho,t_0)\equiv\frac{1}{|\Omega|^{1/2}}\int_{\Omega}u(x,t_0)dx=d_0 \tag{56}$$

tenglikdan foydalanamiz, bu yerda t_0 tayinlangan vaqt.

Manba funksiyasini aniqlash uchun, yuqorida sanab o'tilgan ishlarda bo'lgani kabi, biz

$$u(x,T)=\psi(x), \quad x\in\overline{\Omega}, \tag{57}$$

qo'shimcha ma'lumotdan foydalanamiz. Shubhasiz, agar (56) shartda $t_0=T$ qeb olsak, u hech qanday yangi ma'lumot bermaydi va shuning uchun biz $t_0<T$ deb olamiz. Ushbu ishning asosiy natijasi shuni ko'rsatadiki, (56) va (57) qo'shimcha shartlar (55) masala uchun bir vaqtning o'zida kasr hosilaning tartibi va manba funksiyasining mavjudli va yagonaligi kafolatlaydi.

7 - ta'rif . *Agar* $u(x,t)$, $f(x)$ *funksiyalar va* ρ *parametr quyidagi*

1. $\rho\in(0,1)$,

2. $f(x)\in C(\overline{\Omega})$,

3. $\partial_t^{\rho} u(x,t), \quad \Delta u(x,t) \in C(\overline{\Omega} \times (0,T))$,

4. $J_t^{1-\rho} u(x,t) \in C(\overline{\Omega} \times [0,T])$,

shartlarni va (55), (56) *va* (57) *masalaning barcha shartlarini qanoatlantirsa, u holda bu* $\{u(x,t), f(x), \rho\}$ *uchlikka* (55) - (57) *teskari masalaning klassik ma'nodagi yechimi deyiladi. Yuqoridagi xossalarga ega bo'lgan* $u(x,t)$ *funksiya to'g'ri masalaning yechimi deb ataladi.*

Agar biz Furye usulidan foydalansak, quyidagi spektral masalaga kelamiz:

$$-\Delta v(x) = \lambda v(x), \quad x \in \Omega;$$

$$Bu(x,t) \equiv \frac{\partial u(x,t)}{\partial n} = 0, \quad x \in \partial\Omega.$$

Chegara $\partial\Omega$ ikki marta differensiallanadigan bo'lganligi sababli, bu masala $L_2(\Omega)$ da to'la ortonormal $\{v_k(x)\}$, $k \geq 1$ xos funksiyalar sistemasiga va manfiy bo'lmagan $\{\lambda_k\}$ xos qiymatlar to'plamiga ega bo'ladi. Shu narsani ta'kidlab o'tamizki, bu yerda $\lambda_1 = 0$ va $v_1(x) = |\Omega|^{-1/2}$ bo'ladi.

Faraz qilaylik, berilgan $\varphi(x)$ va $\psi(x)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

a) $\varphi(x) \in C^{[\frac{N}{2}]}(\Omega)$, $D^{\alpha}\varphi(x) \in L_2(\Omega), \quad |\alpha| = [\frac{N}{2}] + 1$;

b) $B\varphi(x) = B(\Delta\varphi(x)) = ... = B(\Delta^{[\frac{N}{2}]}\varphi(x)) = 0, \quad x \in \partial\Omega$;

c) $\psi(x) \in C^{[\frac{N}{2}]+1}(\Omega)$, $D^{\alpha}\psi(x) \in L_2(\Omega), \quad |\alpha| = [\frac{N}{2}] + 2$;

d) $B\psi(x) = B(\Delta\psi(x)) = ... = B(\Delta^{[\frac{N}{2}]+1}\psi(x)) = 0, \quad x \in \partial\Omega$.

Shuni ta'kidlash kerakki, (a) va (b) shartlarning bajarilishi to'g'ri masalaning yechimi mavjud va yagonaligini ta'minlaydi, (57) qo'shimcha shartdagi $\psi(x)$ funksiya (c) va (d) shartlarni qanoatlantirsa, u holda, manba funksiya $f(x)$ mavjud va yagonadir.

Aytaylik, quyidagi shart bajarilgan bo'lsin

$$\varphi_1^2 + \psi_1^2 \neq 0. \tag{58}$$

(56) qo'shimcha shartdagi t_0 parametrni quyidagi tarzda tanlaymiz. Agar $\varphi_1 \cdot \psi_1 \leq 0$ bo'lsa, u holda $t_0 \in (1,T)$ va boshqa hollarda

$$t_0 \in (1,T) \cap \begin{cases} \left(1, \dfrac{\varphi_1}{\psi_1} \cdot T\right) & agar \quad \dfrac{\varphi_1}{\psi_1} \cdot T > 1; \\ (2(\ln T + 1)\dfrac{\varphi_1}{\psi_1} \cdot T, T) & agar \quad \dfrac{\varphi_1}{\psi_1} \cdot T \leq 1. \end{cases} \tag{59}$$

Bu paragrafning asosiy natijasi.

16-teorema. *Aytaylik,* (a) - (d) *va* (58) - (59) *shartlar bajarilsin. Agar*

$$\min\left\{\psi_1,\varphi_1\left[1-\frac{t_0}{T}\right]+\frac{t_0\psi_1}{T}\right\}<d_0<\max\left\{\psi_1,\varphi_1\left[1-\frac{t_0}{T}\right]+\frac{t_0\psi_1}{T}\right\}$$

shart bajarilsa, u holda (55) - (57) *teskari masala* $\{u(x,t), f(x), \rho\}$ *yagona yechimga ega bo'ladi va bu yechimlar quyidagi ko'rinishga ega*

$$u(x,t)=\sum_{k=1}^{\infty}[\varphi_k t^{\rho-1}E_{\rho,\rho}(-\lambda_k t^{\rho})+f_k t^{\rho}E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k t^{\rho})]v_k(x), \tag{60}$$

$$f(x)=\sum_{k=1}^{\infty}\frac{\psi_k}{T^{\rho}E_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k T^{\rho})}v_k(x)-\sum_{k=1}^{\infty}\frac{\varphi_k E_{\rho,\rho}(-\lambda_k T^{\rho})}{TE_{\rho,\rho+1}(-\lambda_k T^{\rho})}v_k(x), \tag{61}$$

bu yerda qatorlar tekis va absolyut yaqinlashadi.

Uchinchi bobda biz $\frac{\partial^k u}{\partial y^k}=(-1)^k A(x,D)u$, ($k=1,2$) tenglamalar uchun chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan chegaraviy masalalar bilan shug'ullanamiz, bu yerda $A(x,D)$ manfiy bo'lmagan elliptik differensial operator va chegaraviy shart musbat haqiqiy ρ kasr tartibli hosila bilan aniqlangan B_y^{ρ} operator yordamida berilgan. Xususan, B_y^{ρ} chegaraviy operator Marchaud, Grunwald-Letnikov yoki Liuvill-Weyl kasr tartibli hosilalar orqali berilishi mumkin.

Quyidagi chegaraviy masalani qaraylik:

$$u_{yy}(x,y)=A(x,D)u(x,y),\quad x\in\Omega,\quad y>0, \tag{62}$$

$$B_j u(x,y)=\sum_{|\alpha|\le m_j}b_{\alpha,j}(x)D^{\alpha}u(x,y)=0,\quad 0\le m_j\le m-1,\ j=1,2,...,l;\ x\in\partial\Omega, \tag{63}$$

$$B_y^{\rho}u(x,+0)=\varphi(x),\quad \rho>0, x\in\Omega, \tag{64}$$

$$|u(x,y)|\to 0,\quad y\to\infty,\quad x\in\Omega, \tag{65}$$

bu yerda $\varphi(x)$ va $b_{\alpha,j}(x)$ koeffitsiyentlar berilgan funksiyalar.

7-ta'rif. *Agar* $u(x,y)$ *funksiya quyidagi* $u_{yy}(x,y)$, $A(x,D)u(x,y)\in C(\overline{\Omega}\times(0,\infty))$, $u(x,y)$, $B_y^{\rho}u(x,y)\in C(\overline{\Omega}\times[0,\infty))$ *xossalariga ega bo'lib,* (62) - (65) *masalaning barcha shartlarini qanoatlantirsa bu funksiya* (62) - (65) *chegaraviy masalaning* ***(klassik) yechimi*** *deyiladi.*

Agar (62) - (65) masalani yechish uchun Furye usulini qo'llasak, biz quyidagi spektral masalaga kalamiz:

$$A(x,D)v(x)=\lambda v(x)\quad x\in\Omega; \tag{66}$$

$$B_j v(x)=0,\quad j=1,2,...,l;\quad x\in\partial\Omega.. \tag{67}$$

S. Agmon ishida teskari operatorning kompaktligini, ya'ni Ω sohaning $\partial\Omega$ chegarasi hamda A va B_j operatorlarning koeffitsiyentlari uchun (66) - (67) spektral masala $L_2(\Omega)$ da $\{v_k(x)\}$, $k\ge 1$ xos funksiyalar ortonormal to'la sistemasi va manfiy bo'lmagan λ_k xos qiymatlar to'plamiga ega bo'lishini kafolatlovchi zaruriy shartlarni topdi. Bundan keyin biz ushbu shartlar bajarilgan deb faraz qilamiz. Aytaylik, $\lambda = 0$ xos qiymat k_0 karrali ildiz bo‘lsin, ya’ni $\lambda_k = 0, \quad k = 1,2,...,k_0$. Faraz qilaylik, $\varphi(x)$ chegaraviy funksiya quyidagi ortogonallik shartlarini qanoatlantirsin

$$\varphi_k = \int_\Omega \varphi(x) v_k(x) dx = 0, k = 1,2,...,k_0. \qquad (68)$$

17-teorema. *Ayatylik ,* $\varphi(x) \in D(\hat{A}^\tau)$ *,* $\tau > \frac{N}{2m}$ *va* (68) *shartlar bajarilsin . U holda* (62) - (65) *to‘g‘ri masala quyidagi ko‘rinishda yagona yechimga ega*

$$u(x,y) = \sum_{k=k_0+1}^{\infty} \frac{1}{(\sqrt{\lambda_k})^\rho} \varphi_k v_k(x) e^{-\sqrt{\lambda_k} y}, \qquad (69)$$

bu yerda qator barcha $y \in [0,\infty)$ *lar uchun* $x \in \overline{\Omega}$ *da absolyut va tekis yaqinlashadi.*

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida quyidagicha masala qaralgan.

$$u_t(x,t) + A(x,D)u(x,t) = 0, \quad x \in \Omega, \quad t > 0, \qquad (70)$$

$$B_j u(x,t) = \sum_{|\alpha| \le m_j} b_{\alpha,j}(x) D^\alpha u(x,t) = 0, \quad 0 \le m_j \le m-1, \ j = 1,2,...,l; \ x \in \partial\Omega, \qquad (71)$$

$$B_t^\rho u(x,+0) = \varphi(x), \quad \rho > 0, \ x \in \overline{\Omega}, \qquad (72)$$

bu yerda $\varphi(x)$ va koeffitsiyentlar $b_{\alpha,j}(x)$ funksiyalar berilgan.

18-teorema. *Aytaylik,* (68) *va* $\varphi(x) \in D(\hat{A}^\tau), \tau > \frac{N}{2m}$ *shartlar bajarilsin. U holda* (70) - (72) *to‘g‘ri masala quyidagi ko‘rinishda yagona yechimga ega*

$$u(x,t) = \sum_{k=k_0+1}^{\infty} \frac{1}{\lambda_k^\rho} \varphi_k v_k(x) e^{-\lambda_k t}, \qquad (73)$$

bu yerda qator barcha $t \in [0,\infty)$ *lar uchun* $x \in \overline{\Omega}$ *da absolyut va tekis yaqinlashadi.*

To’rtinchi bob Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi butun va kasr tartibli tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. To‘rtinchi bobning birinchi paragrafida Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi kasr tartibli tenglamalar uchun Koshi masalasining yechimi mavjud va yagonaligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga tenglamaning o‘ng tomonini topish bo‘yicha teskari masalaning yechimi mavjud va yagonaligi ham isbotlangan.

To‘rtinchi bobning ikkinchi paragrafida esa, chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan Barenblatt-Jeltov-Kochina tenglamasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalarning yechimi mavjud va yagonaligi isbotlangan.

Quyidagi Koshi masalasini qaraymiz:

$$\begin{cases} D_t^\rho u(t) + A(D_t^\rho u(t)) + Au(t) = f, & 0 < t \le T; \\ u(+0) = \varphi, \end{cases} \qquad (74)$$

bu yerda $\varphi, f \in H$.

8-ta'rif. *Agar* $u(t) \in C((0,T];H)$ *funksiya* $D_t^\rho u(t), A(D_t^\rho u(t)),$ $Au(t) \in C((0,T);H)$ *xossalarga ega bo'lib,* (74) *masalaning barcha shartlarini qanoatlantirsa, u holda* $u(t)$ *funksiyaga* (74) Koshi masalasining ***yechimi*** deyiladi.

19-teorema. *Aytaylik,* $\varphi \in D(A)$, $f \in H$ *bo'lsin. U holda* (74) *Koshi masalasining yagona yechimi mavjud va u quyidagicha ko'rinishga ega*

$$u(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\varphi_k E_{\rho,1}(-\mu_k t^\rho) + \frac{f_k}{1+\lambda_k} t^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\mu_k t^\rho) \right] v_k \ , \tag{75}$$

bu yerda f_k, φ_k *lar Furye koeffitsiyentlari,* $\mu_k = \dfrac{\lambda_k}{1+\lambda_k}$.

Teskari masalani o'rganish uchun bizga qo'shimcha shart kerak bo'ladi. Biz qo'shimcha shart sifatida quyidagi shartdan foydalanamiz:

$$u(\tau) = \Psi, \quad 0 < \tau \le T \,, \tag{76}$$

bu yerda τ fiksirlangan nuqta.

(74), (76) masalada $u(t)$ va f funksiyalarning $\{u(t), f\}$ juftligini topish masalasiga tenglamaning o'ng tomonini topish bo'yicha ***teskari masala*** deyiladi.

Endi ushbu punktning asosiy natijasini keltiramiz.

20-teorema. *Aytaylik,* φ, $\Psi \in D(A)$ *bo'lsin. U holda* (74), (76) *teskari masalaning* $\{u(t), f\}$ *yagona yechimi mavjud va u quyidagi ko'rinishga ega*

$$u(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left[\varphi_k E_{\rho,1}(-\mu_k t^\rho) + \frac{f_k}{1+\lambda_k} t^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\mu_k t^\rho) \right] v_k \,, \tag{77}$$

va $f = \sum\limits_{k=1}^{\infty} f_k v_k$, bu yerda $f_k = \left(\dfrac{\psi_k}{\tau^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\mu_k \tau^\rho)} - \dfrac{\varphi_k E_{\rho,1}(-\mu_k \tau^\rho)}{\tau^\rho E_{\rho,\rho+1}(-\mu_k \tau^\rho)} \right)(1+\lambda_k)$.

To'rtinchi bobning ikkinchi paragrafida chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan Barenblatt-Jeltov-Kochina tipidagi tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar o'rganiladi.

Quyidagi masalani qaraylik:

$$\begin{cases} u_t(t) + A(u_t(t)) + Au(t) = 0, & 0 < t \le T; \\ B_t^\rho u(+0) = \varphi, \end{cases} \tag{79}$$

bu yerda chegaraviy shart musbat haqiqiy ρ kasr tartibli hosila bilan aniqlangan B_t^ρ operator yordamida berilgan. Xususan, B_t^ρ chegaraviy operator Marchaud, Grunwald-Letnikov, Liuvill-Weyl kasr tartibli hosilalar orqali berilishi mumkin.

21-teorema. *Aytaylik,* $\varphi \in D(A)$ *bo'lsin. U holda* (79) *masala yagona yechimga ega va u quyidagicha ko'rinishda bo'ladi*

$$u(t) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\varphi_k}{\mu_k^\rho} e^{-\mu_k t} v_k \,, \tag{80}$$

bu yerda $\varphi_k = (\varphi, v_k)$ *lar* φ *funksiyaning Furye koeffitsiyentlari.*

Bu paragrafda bundan tashqari chegaraviy funksiyani topish bo'yicha teskari masala ham o'rganilgan. Buning uchun qo'shimcha shart sifatida quyidagi shartdan foydalanamiz:

$$u(\tau)=\Psi, \quad 0<\tau\le T, \tag{81}$$

bu yerda τ fiksirlangan nuqta.

22-teorema. *Aytaylik,* $\Psi\in D(A)$ *bo'lsin. U holda* (79), (81) *teskari masalaning* $\{u(t),\varphi\}$ *yagona yechimi mavjud va u quyidagi ko'rinishda ega*

$$u(t)=\sum_{k=1}^{\infty}\frac{\varphi_k}{\mu_k^{\rho}}e^{-\mu_k t}v_k, \tag{82}$$

va $\varphi=\sum_{k=1}^{\infty}\varphi_k v_k$, bu yerda $\varphi_k=\Psi_k\mu_k^{\rho}e^{\mu_k\tau}$.

Be bobda to'g'ri to'rtburchakli sohada kasr tartibli tenglamalar bilan berilgan jarayonlarni manba funksiyasi yordamida boshqarish masalalari o'rganilgan.

Quyidagi Kaputo ma'nosida kasr tartibli

$$D_t^{\alpha}u=u_{xx}+u_{yy}+f(x,y,t), \quad 0<x<l_1, \quad 0<y<l_2, \ 0<t<T \tag{83}$$

tenglamaning

$$u(0,y,t)=0, u(l_1,y,t)=0, u(x,0,t)=\mu(t), u(x,l_2,t)=0, \mu(0)=0, \ 0\le t\le T \tag{84}$$

chegaraviy va

$$u(x,y,0)=\varphi(x,y), \qquad 0\le x\le l_1, 0\le y\le l_2, \tag{85}$$

boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasini qaraylik, bu yerda $\varphi(x,y)$ oldindan berilgan funksiya, $\mu(t)$ chegaralangan, monoton funksiya, $\mu'(t)\le M_1$, $\mu(0)=0$ va $T>0$ – fiksirlangan son. $\Omega=(0,l_1)\times(0,l_2)$ deb belgilash kiritaylik.

23-teorema. *Aytaylik,* $f(x,y,t)\in C_{x,y,t}^{2,2,1}(\bar{\Omega}\times[0,T])$, $\varphi(x,y)\in C_{x,y}^{2,2}(\bar{\Omega})$ *bo'lsin. Agar* $f(x,y,t)$ *va* $\varphi(x,y)$ *funksiyalar ularning* x,y *bo'yicha ikkinchi tartibli hosilalari va* t *ga nisbatan birinchi tartibli hosilasi* Ω *sohaning chegarasida nolga teng va* f_{xxy}''', f_{xyy}''', φ_{xxy}''', φ_{xyy}''' *lar chegaralangan funksiyalar bo'lib,* $f_{xxyy}^{(4)}$, $\varphi_{xxyy}^{(4)}$, f_{txy}''' *funksiyalar* $\bar{\Omega}$ *da integrallanuvchi bo'lsa, u holda* (83) - (85) *masalaning* Ω *sohada yechimi mavjud va u quyidagi ko'rinishga ega*

$$u(x,y,t)=U(x,y,t)+\sum_{n=1}^{\infty}\sum_{m=1}^{\infty}\left[\bar{f}_{nm}(t)+\varphi_{nm}E_{\alpha,1}(-\lambda_{nm}^2t^{\alpha})\right]sin\alpha_n x\cdot sin\beta_m y, \tag{86}$$

bu yerda

$$U(x,y,t)=\begin{cases}\dfrac{l_2-y}{l_2}\mu(t), & agar \quad 0<x<l_1;\\ 0, & agar \quad x=0 \ va \ x=l_1.\end{cases}, \quad \lambda_{nm}=\sqrt{\left(\frac{\pi n}{l_1}\right)^2+\left(\frac{\pi m}{l_2}\right)^2},$$

$$\bar{f}_{nm}(t)=\frac{4}{l_1l_2}\int_0^t\int_0^{l_1}\int_0^{l_2}\left[f(\xi,\eta,\tau)+\frac{\eta-l_2}{l_2}D^{\alpha}\mu(t)\right]\sin\alpha_n\xi\sin\beta_m\eta\times$$

$$\times(t-\tau)^{\alpha-1}E_{\alpha,\alpha}(-\lambda_{nm}^2(t-\tau)^{\alpha})d\eta d\xi d\tau,$$

$$\varphi_{nm}=\frac{4}{l_1 l_2}\int_0^{l_1}\int_0^{l_2}\varphi(\xi,\eta)\sin\frac{\pi n\xi}{l_1}\sin\frac{\pi m\eta}{l_2}d\eta d\xi,\quad \alpha_n=\frac{\pi n}{l_1},\ \beta_m=\frac{\pi m}{l_2}.$$

Boshqaruv masalalarini yechishda f funksiya t ga bog‘liq emas va $\mu(t)=0$ deb faraz qilamiz. Aytaylik, $\Psi(x,y)$ funksiya berilgan bo‘lsin. Shunday $f(x,y)$ manba funksiyasini topish kerakki, natijada (83) - (85) masalaning yechimi quyidagi shartni qanoatlantirsin:

1-masala. $t=\theta$ daqiqada quyidagi tenglikni qanoatlantirsin

$$u(x,y,\theta)=\Psi(x,y). \tag{87}$$

Boshqacha qilib aytganda, biz manba funksiyasi $f(x,y)$ ni shunday tanlashimiz kerakki, natijada $t=\theta$ vaqtda Ω muhitdagi harorat $\Psi(x,y)$ kabi taqsimlangan bo‘lishi kerak.

2-masala. $[0,T]$ vaqt oralig‘idagi quyidagi tenglikni qanoatlantirsin

$$\int_0^T u(x,y,t)dt=\Psi(x,y). \tag{88}$$

3-masala. t_1 va t_2 daqiqadagi qiymatlari yig‘indisi quyidagi tenglikni qanoatlantirsin

$$u(x,y,t_1)+u(x,y,t_2)=\Psi(x,y). \tag{89}$$

Aytaylik, $\varphi(x,y)$ va $\Psi(x,y)$ funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin.

a) $\varphi(x,y)\in C_{x,y}^{2,2}(\bar{\Omega})$ funksiya va uning ikkinchi tartibli hosilalari Ω sohaning chegarasida nolga teng va φ_{xxy}''', φ_{xyy}''' funksiyalar chegaralangan bo‘lib, $\varphi_{xxyy}^{(4)}$ funksiya Ω sohada integrallanuvchi bo‘lsin.

b) $\Psi(x,y)\in C_{x,y}^{4,4}(\bar{\Omega})$ funksiya va $0\le i+j\le 7$ bo‘lib, agar $i+j$ juft bo‘lsa, $\dfrac{\partial^{i+j}}{\partial x^i\partial y^j}\Psi(x,y)$ hosilalar Ω sohaning chegarasida nolga teng va agar $i+j$ toq bo‘lsa, $\dfrac{\partial^{i+j}}{\partial x^i\partial y^j}\Psi(x,y)$ hosilalar Ω sohaning chegarasida chekli bo‘lsin, hamda $\dfrac{\partial^8}{\partial x^4\partial y^4}\Psi(x,y)$ funksiya Ω sohada integrallanuvchi bo‘lsin.

24-teorama. *Aytaylik, φ va Ψ funksiyalar mos ravishda* a) *va* b) *shartlarini qanoatlantirsin. U holda* (83) - (85) *masalaning yechimi* (87) *shartni qanoatlantirishi uchun $f(x,y)$ funksiya quyidagi formula bilan aniqlanishi yetarli*

$$f(x,y)=\sum_{n=1}^{\infty}\sum_{m=1}^{\infty}\left[\frac{\Psi_{nm}}{\theta^\alpha E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_{nm}^2\theta^\alpha)}-\frac{\varphi_{nm}E_{\alpha,1}(-\lambda_{nm}^2\theta^\alpha)}{\theta^\alpha E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_{nm}^2\theta^\alpha)}\right]sin\alpha_n x\cdot sin\beta_m y\ , \tag{90}$$

bu yerda φ_{nm} va Ψ_{nm} lar Furye koeffitsiyentlari.

25-teorema. *Aytaylik, φ va Ψ funksiyalar mos ravishda* a) *va* b) *shartlarini qanoatlantirsin. U holda* (83) - (85) *masalaning yechimi* (88) *shartni qanoatlantirishi uchun $f(x,y)$ funksiya quyidagi formula bilan aniqlanishi yetarli*

$$f(x,y)=\sum_{n=1}^{\infty}\sum_{m=1}^{\infty}\left[\frac{\Psi_{nm}}{T^{\alpha+1}E_{\alpha,\alpha+2}(-\lambda_{nm}^{2}T^{\alpha})}-\frac{\varphi_{nm}E_{\alpha,2}(-\lambda_{nm}^{2}T^{\alpha})}{T^{\alpha}E_{\alpha,\alpha+2}(-\lambda_{nm}^{2}T^{\alpha})}\right]sin\alpha_{n}x\cdot sin\beta_{m}y\,. \quad (91)$$

26-teorema. *Aytaylik,* φ *va* Ψ *funksiyalar mos ravishda* a) *va* b) *shartlarini qanoatlantirsin. U holda* (83) - (85) *masalaning yechimi* (89) *shartni qanoatlantirishi uchun* $f(x,y)$ *funksiya quyidagi formula bilan aniqlanishi yetarli*

$$f(x,y)=\sum_{n=1}^{\infty}\sum_{m=1}^{\infty}\left[\frac{\Psi_{nm}}{t_{2}^{\alpha}E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_{nm}^{2}t_{2}^{\alpha})+t_{1}^{\alpha}E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_{nm}^{2}t_{1}^{\alpha})}-\right.$$

$$\left.-\frac{\varphi_{nm}\left[E_{\alpha,1}(-\lambda_{nm}^{2}t_{2}^{\alpha})+E_{\alpha,1}(-\lambda_{nm}^{2}t_{1}^{\alpha})\right]}{t_{2}^{\alpha}E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_{nm}^{2}t_{2}^{\alpha})+t_{1}^{\alpha}E_{\alpha,\alpha+1}(-\lambda_{nm}^{2}t_{1}^{\alpha})}\right]sin\alpha_{n}x\cdot sin\beta_{m}y\;. \quad (92)$$

XULOSA

Dissertatsiya ishi kasr tartibli differensial va xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun turli to‘g‘ri va teskari masalalarni yechishga va kasr tartibli tenglamalar uchun boshqaruv masalalarni yechishga bag‘ishlangan. Tadqiqot ishlarining natijalari xususida quyidagi xulosalarni qilish mumkin.

Oldin o‘rganilgan ishlardan asosiy farqi bu ishda qaralayotgan vaqt bo‘yicha nolokal shartlar boshqa ishlarda o‘rganilmagan, ya’ni kasr hosilalari bilan berilgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun bunday nolokal shartlarga ega masalalar oldin o‘rganilmagan. Ushbu masalalarni o‘rganishda nolokal shartda qatnashgan α parametrning o‘rganilayotgan masalalarning yechimi yagonaligiga ta‘siri aniqlangan. To‘g‘ri masalani o‘rganishda biz α parametrning ba’zi qiymatlarida yechimning yagona emasligi va yechimning mavjudligini ta‘minlash uchun berilgan φ va f funksiyalar uchun ortogonallik shartlarini talab qilish kerak bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Kasr hosilaning tartibini aniqlashda oldin foydalanilgan shartlardan boshqa shart ya’ni biror xos funksiyaga proyeksiyalashdan foydalanilgan. Oldingi ishlarda foydalanilgan shartdan izlanuvchilar faqat yechimning yagonaligini ko‘rsatishda foydalanishgan. Bu yerda foydalanilgan shart nafaqat yechimning yagonaligini, balki uning mavjudligini ham ta‘minlashga kifoya qiladi.

Tenglamaning o‘ng tomoni va chegaraviy funksiyani topish bo‘yicha teskari masalani topish shartlari keltirib chiqarilgan.

Elliptik qismi yuqori tartibli va ko‘p o‘zgaruvchili kasr tartibli tenglamalarning klassik yechimni olish uchun Krasnoselskiy lemmasidan foydalanish usuli ishlab chiqilgan.

Chegaraviy shart kasr tartibli hosila bilan berilgan tenglamalarning yechimi mavjud va yagona bo‘lishligi uchun chegaraviy funksiya uchun ortogonallik shartlari kelib chiqishi tushuntirilgan.

Barenblatt-Jeltov-Kochina va boshqa tipidagi kasr tartibli tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalarni yechish usullari ishlab chiqilgan.

Kasr tarttibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun ushbu kasr tartibli tenglama bilan berilgan turli jarayonlarni manba funksiyasi yordamida boshqarish usullari ko‘rsatilgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 AT V.I. ROMANOVSKIY INSTITUTE OF MATHEMATICS

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

FAYZIEV YUSUF ERGASHEVICH

FORWARD AND INVERSE PROBLEMS FOR FRACTIONAL PARTICULAR DIFFERENTIAL EQUATIONS WITH HIGHER-ORDER ELLIPTIC PART

01.01.02-Differential equations and mathematical physics

DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTORAL DISSERTATION (DSc) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2022

The theme of dissertation of doctor of science (DSc) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B2022.3.DSc/FM198.

Dissertation has been prepared at National University of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (uzbek, russian, english (resume)) on the website (http://kengash.mathinst.uz) and the "Ziyonet" Information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific consultant:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, Professor
Official opponents:	**Turmetov Botirxan Xudaybergenovich** Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, Professor
	Taxirov Jozil Ostanovich Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, Professor
	Karimov Erkinjon Tulqinovich Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, senior researcher
Leading organization:	**Institute of Cosmophysical Research and Radio Wave Propagation (Russian)**

Defense will take place « 29 » November 2022 at 16:00 at the meeting of Scientific council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at V.I. Romanovskiy Institute of Mathematics (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871)-207-91-40). E-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz

Doctoral dissertation is possible to review in Information-resource centre of V.I. Romanovskiy Institute of Mathematics (is registered № 148) (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871)-207-91-40). E-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Abstract of dissertation sent out on « 11 » November 2022.
(mailing report № 2 on « 11 » November 2022).

U.A. Rozikov
Chairman of Scientific Council on award of scientific degrees, DSc, Professor

J.K. Adashev
Scientific secretary of Scientific Council on award of scientific degrees, DSc, senior researcher

A. Azamov
Chairman of Scientific Seminar under Scientific Council on award of scientific degrees, DSc, Academician

INTRODUCTION (Abstract of DSc thesis)

Actuality and necessity of the theme of the thesis. In recent years, creating a mathematical model of many life processes and solving it with mathematical methods has become widespread among mathematicians. These processes are inextricably linked with the development of medicine and techniques. Fractional integrals and derivatives have many applications in the fields of physics, biology, medicine and technology, and it is important in the development of these specialities. For this reason, in recent years, mathematicians are increasingly interested in studying differential equations with fractional derivatives and partial differential equations. Fractional equations represent diffusion and wave propagation processes simultaneously. Such processes are very common in nature; Therefore it is very important to study fractional equations. Take an example the process of virus spread. In 2020, Professors of “the Laboratory of Differential Equations and Its Applications” and “the University of New Haven” developed models for determining the rate of virus spread, the source of enternal and internal influence and the boundary influence. At the same time, the obtained results were applied to the analysis of the spread of COVID-19 in association with Johns Hopkins University.

In addition to learning how to solve partial differential equations, it is very important to learn how to solve inverse problems related to determining the coefficients of the equation, its right side, the boundary function, and the order of the fractional derivative. Studying inverse problems gives us the opportunity to study, analyze and control the processes given by the fractional equation. For example, if we take heat diffusion processes, our knowledge of the boundary function allows us to control the heat diffusion from the boundary. There are many similar examples. If we consider the fractional equation if the order of the fractional derivative $1<\rho<2$, it represents simultaneous diffusion and wave propagation processes, if $0<\rho<1$, it indicates slow diffusion processes. For example, one can take the processes of virus propagation. There are many such processes in our life. That is why it is important to study fractional equations.

In our country, attention has been paid to the current directions of differential equations and mathematical physics, which have scientific and practical application of fundamental research[1]. Conducting scientific research at the level of international standards in priority areas of mathematical sciences, especially “algebra and functional analysis, differential equations and mathematical physics, theory of dynamic systems” is defined as the main task and direction of the activity of the V.I. Romanovsky Institute of Mathematics named after Academy of Sciences. It is important to develop new directions of mathematical physics in ensuring the implementation of the decision. Decree and Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-3682 of April 27, 2018 “On

[1] Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan at the 2017 year 18 May , "On measures on the organization of activities of the first created scientific research institutions of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan" No. 292

measures to further improve the system of implementation of innovative ideas, technologies and projects” and No. PQ-4387 of July 9, 2019 “Mathematics education and state support for the further development of sciences, as well as on measures to fundamentally improve the activity of the Mathematical Institute named after V.I. Romanovsky of the AS of UzR, as well as in the implementation of the tasks specified in other regulatory legal documents related to this activity dissertation research serves a certain level.

Connection of research to priority directions of development of science and technologies of the Republic. This research work was carried out in accordance with the priority direction of development of science and technology in the Republic of Uzbekistan IV. “Mathematics, mechanics and informatics”.

Review of foreign scientific researches on the topic the dissertation. Almost all universities, research institutes and scientific centers of the world are conducting researches on direct and inverse problems for fractional differential and partial differential equations. We will list some of them as an example. As we said above, they are Johns Hopkins University (USA), Tokyo University (Japan), Berlin University of Applied Sciences (Germany), New Haven University (USA), Berlin University (Germany), Belorussian State University (Belarus), Hokkaido University (Japan), at La Rochelle University (France), Institute of Applied Mathematics and Automation (Russia), Middle East University (Turkey), International Kazakh-Turkish University (Kazakhstan) and others.

Inverse problems on determining the order of the fractional derivative were studied by Professor M. Yamamoto of Tokyo University (Japan) and others. Their method ensured the uniqueness of the solution of the inverse problem only. Professor S. Umarov of the New Haven University of the United States of America and Professor R. Ashurov of the Mathematical Institute of the FA of the Republic of Uzbekistan obtained new conditions for single-valued determination of the solution of the inverse problem for determining the order of the fractional derivative, if the first eigenvalue of the spectral problem corresponding to the equation is zero and the first eigenfunction is a constant number.

Various boundary problems for fractional differential and partial differential equations are studied by many scientists. The nonlocal condition connecting the values of the initial time and the assigned time for the diffusion equations was studied in the works of A. Ashyaraliyev (Turkey) and others. Boundary conditions for elliptic equations, which given with fractional derivatives were studied by B.Turmetov (Kazakhstan) and others.

The degree of scrutiny of the problem. Nowadays, many mathematicians are engaged in solving fractional partial differential equations and related inverse problems. As an example of the results obtained in this direction, we can choose following: Sh.O. Alimov, R.R. Ashurov, S.R. Umarov, M. Yamamota, Z. Li, A.Ashyaraliyev, B. Turmetov, Y. Zhang, H.T. Nguyen, A.V. We can mention the works of Pskhu, A.S. Malik, E. Karimov and etc. An article, which was published by Z. Li and others, in 2019, was stated in “Open Problems” section: “The research on the inverse problem of restoring fractional orders is not satisfactory, because all articles were studied the problem in $t \in (0,\infty)$. It would be interesting to study the value of the fixed-time solution as observation data for the inverse problem". Therefore, in all studied works, except for the work of J. Janno, only the uniqueness of the solution is indicated. In the work of J. Janno, the existence of the solution is also shown, but he used another condition as an additional condition. R.R. Ashurov and S.R. Umarov developed a new condition to ensure the existence and uniqueness of the solution, if the first eigenvalue is equal to zero, and the corresponding eigenfunction is a constant number. In this dissertation work, using this condition, the problems of determining the order of the derivative with fractional order for different cases were studied. Additionally, even if the first eigenvalue is not equal to zero, the condition that its projection to the corresponding eigenfunction is equal to some number at a given time and one can use this case

